

Nasim OCHILOV

**XALQ EPOSIDA
ZAMONAVIYLIK**

Qarshi-2010

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Nasim OCHILOV

Xalq eposida zamonaviylik

Qarshi: Nasaf. 2010

Baxshichilik san'atining jonli og'zaki ijro jarayonlarida yashashi, davom etishi barqaror uzviy an'analarga bog'liq bo'lgan holatlardandir. Zamonaviy san'at turlarining ijtimoiy-madaniy hayotimizga kirib kelishi va ommalashuvi barqaror uzviylikning davom etmasligiga olib keldi. Natijada jonli epik an'analarda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lib, uning sahnaviy talqinlari yuzaga keldi. Baxshichilik san'ati bilan bog'liq bunday o'zgarishlar repertuarda sun'iy, yasama dostonlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu tadqiqot natijalari jonli og'zaki ijro bilan bog'liq ana shunday jarayon haqida so'z yuritadi.

Mazkur risola oliy o'quv yurtlarining filologiya ixtisosligi talabalari va xalq og'zaki ijodi bilan shug'ullanuvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

T.Mirzayev,

Beruniy nomidagi respublika Davlat mukofoti laureati,
O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari
doktori, professor

Taqrizchilar:

A.Ergashev,

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar
murabbiysi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.Xalilova,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

Xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanmish folklor namunalari orasida xalq dostonlari alohida o'rin tutadi. Doston kuylash, ya'ni baxshichilik san'ati esa o'zining qadimiy ildizlariga ega. Bu san'at ustozdan shogirdga, avloddan avlodga bevosita jonli ijro orqali o'tadi. Folklorshunoslarimizning XX asr davomida olib borgan ilmiy kuzatishlari respublikamizda bir qator dostonchilik markazlari – o'nlab dostonchilik maktablari mavjud bo'lganligini ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Ayni paytda baxshichilik san'ati, baxshilarning doston ijro etish mahoratlari, dostonchilik maktablari, dostonchilik maktablarida ustoz va shogird an'analari, dostonlarda g'oyaviy-badiiy xususiyatlar, so'z va sozning badiiy ta'sir kuchiga e'tibor kabi masalalarni o'rganish, tahlil qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu borada folklorshunosligimizda H.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Murodov, A.Qahhorov, M.Jo'rayev, A.Ergashev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov va boshqa ko'plab olimlarimiz ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Shu bilan bir qatorda jonli epik an'analarga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri natijasida doston va uning ijrochilari dunyoqarashida yuzaga kelgan o'zgarishlarni folkloriy jarayonlarda o'rganish dolzarb vazifalardandir. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu yorug' dunyoda. Ajdodlarimizning qoldirgan ma'naviy merosining o'zi katta bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim".¹

Ana shunday ulug'vor vazifalardan kelib chiqqan holda bugungi baxshichilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari, baxshilar ijrochiligida epik xotira, bilim va dunyoqarashning o'rni, ijtimoiy-madaniy omillarning jonli og'zaki ijro va barqaror uzviylikka ta'siri kabi masalalar maxsus tadqiqot ishlarini talab etadi. Zepo, XXasrda kechgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar baxshilarning ijro jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir asriy an'analarga asosida shakllanib kelgan baxshichilik san'atining so'nishiga, yangicha talqinlarda ijro etilishiga olib keldi. Bunday holatlar esa repertuarda sun'iy, yasama dostonlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Baxshichilik san'ati bilan bog'liq bu kabi o'zgarishlarni biz Janubiy O'zbekiston dostonchiligi misolida ko'rsatishga harakat qildik. Shuningdek, Janubiy O'zbekiston dostonchiligida jonli ijro jarayonining qanday kechuvini kuzatish, avlodlar o'rtasidagi ijodiy vorisiylik, tashqi va ichki ta'sirlar natijasida epik an'analarning yangilanishi bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganish ham shunday vazifalardandir. Ushbu tadqiqot natijalari ana shunday katta jarayonni ilmiy asosda qamrab olganligi bilan diqqatga sazavordir.

¹ Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidagi og'ishmaylik. – T.:O'zbekiston. 1995. 7-8 betlar.

Ijtimoiy-madaniy hayot va baxshilar ijrochiligi

Baxshichilik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, xalqimizning uzoq asrlik tarixi, urf-odati, ruhiy va etnopedagogik xususiyatlarini ajdodlardan avlodlarga o'tkazishda muhim rol o'ynadi. Xalq idealidagi o'lmas qahramonlar, ularning vatanparvarlik, ona-yurt ozodligi uchun bahodirona kurashlari dostonlarlarda xalqona asosda yuksak badiiy kuylanib kelindi. Bu kabi tasvirlar uzoq asrlik an'analar ruhi asosida sayqallashtirilib, baxshi auditoriyasining kengayishiga, jonli ijroda yanada keng tus olishiga sabab bo'lgan. Baxshichilik san'ati asrlar osha ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda rivoj topib, o'ziga xos estetik ahamiyat kasb etib kelgan bo'lsada, uning gullab yashnashi, jonli epik an'analarda rivoj topishi XIX asr va XX asr boshlarida ko'zga tashlanadi. Bu davrda yashagan bir qator baxshi-shoirlarimizning kuchli quvvayi hofizasi, noyob iste'dodi, badihago'ylik mahorati qadim dostonlarimizning jonli ijrolarda kuylanib kelishiga va keyingi avlod baxshilariga o'tkazilishida muhim o'rin egalladi. Baxshi-shoirlarning haqiqiy epik an'analar ijrochisi sifatida shakllanishi, dostonchilik maktablariga xos usul va yo'llarning tom ma'noda rivoj topishi ham ana shu davrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham rus folklorshunosi Yu.A. Novikov rus bilinalarining XIX va XX asr boshlari kuylovchilari o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatiga bo'lgan an'ana haqida fikr yuritib, shunday deydi: "XIX-XX asrning ko'pchilik aytuvchilari uchun ajdodlarning ijodiy merosiga ehtiyotkorona hurmat bilan munosabatda bo'lish xosdir. Epik qo'shiqlar ular tomonidan xalqning yozilmagan tarixi sifatida qabul qilingan. An'ananing nufuzi shu qadar kuchli ediki, ko'pgina qo'shiqchi-badihago'ylar o'zlarining ijodkorliklarini ko'z-ko'z qilmaslikni afzal bilishardi. Eposga bunday munosabat ancha qadimgi davrlarda ham ustunlik qilgan".¹ An'anaviy epos usullariga bunday yondoshuv jarayoni janubiy voha baxshilari o'rtasida ham ancha shakllangan edi. Voha dostonchiligi haqida fikr yuritganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu hududda dostonchilik an'anasi ancha kuchli va qadimiy xususiyatlarini saqlagan holda rivojlanib, baxshilar auditoriyasining kengayishiga sabab bo'lgan. Ustoz va shogird, baxshi shaxsi va uning doston ijrosi, an'ana va badiha, jamoa va individual ijod, soz va so'zning badiiy ta'sir kuchiga e'tibor kabi masalalar voha baxshilarining o'ziga xos uslub yo'nalishlaridan hisoblangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi, taraqqiyoti va ijro usullari baxshichilik san'atining ijtimoiy-madaniy jarayonlarda ommalashuvi bilan bog'liq holatlardandir. Har bir dostonchilik maktabining yuzaga kelishi, shakllanishi va poetik ifoda kasb etishi badihago'y baxshilar faoliyati bilan bog'liq bo'lganligini janubiy vohada faoliyat ko'rsatgan Sherobod, Boysun, Beshqo'ton, Chiroqchi, Qamay dostonchilik maktablarining ijodkor baxshilari misolida ko'rib o'tsak. Folklorshunos A. Qahhorov Janubiy O'zbekiston baxshilari ijro jarayonlarini uzoq yillik kuzatuvlari natijasida dostonchilik maktablaridagi an'anaviy ustoz-

¹ Novikov Y. A. Skazitel i bilinnaya traditsiya. – SP b., 2000. str. 15

shogirdlik munosabatlarini o'rganib, ular shajarasini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Olimning aniqlashicha, Sherobod dostonchilik maktabi shajarasining boshida Bobo shoir bo'lib (XIX asrning birinchi yarmi), u juda ko'plab shogirdlar yetishtirgani, shu maktabga xos ijro belgilari ham uning nomi bilan bog'langanligini ta'kidlaydi. Bobo shoir, Qosimko'r, Shernazar Berdinazar o'g'li, Xolmurod Qosim o'g'li, Azim yuzboshi kabi iqtidorli baxshi shogirdlar tayyorladiki, ana shu shogirdlar so'z va sozda, shogird tayyorlash an'anasida Sherobod dostonchilik maktabining taraqqiyotiga munosib ulush qo'shdilar. Bobo shoir shogirdlaridan SHernazar Berdinazar o'g'lining jonli epik an'ananing talantli ijrochisi sifatida o'rni beqiyosdir. Hattoki, Sherobod dostonchiligining asoschisi sifatida unga nisbat berilishi ham bejiz emas. Bu borada folklorshunos M.Afzalov "O'zbek xalq shoirlari" maqolasida alohida fikr bildiradi: "Sherna o'z davrining eng chechan, so'zga boy san'atkor shoirlaridan bo'lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo'lmagan. Shernazar shoir Surxandaryo va Qashqadaryo hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib, doston aytib, tinglovchilarni xayratga qoldirgan. Xalq orasida o'z dostonlari bilan ma'lum va mashxur bo'lgan Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Normurod Shernazar o'g'li, Jo'ra Eshmurod o'g'li va boshqa iste'dodli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Berdinazar o'g'lidir".¹ Yoxud Boysun, Behsquton, Chiroqchi, Qamay dostonchiligi haqida ham xuddi shunday fikr yuritish mumkin. Chiroqchi dostonchilik maktabi haqida so'z ketganda, bu maktabning o'ziga xos usul va yo'nalishi haqidagi xususiylik bevosita Rajab shoir (XIX asr boshlari), Xolnazar shoir (XIX asr o'rtalari), Iskandar shoir (XIX asr o'rtalari), To'ra shoir (XIX asr boshi), Abdulla shoir Nurali o'g'li (1874 - 1957), Hamro shoir Ergash o'g'li va boshqa ko'plab ustoz baxshilar nomini tilga olish bilan bog'liqdir.

Qamaylik baxshilardan Berdimurod shoir, Murod baxshi Xo'jayor o'g'li, Abdukarim juyruq, Xidir shoir, Boysari baxshi, Mulla Xolnazar, Sa'dulla Hakimov, Mulla Bozor shoir va juda ko'plab baxshilar shajarasini ana shu maktabdagi ustoz – shogirdlik munosabati va ularning epik ijroga bo'lgan umumiyliklari birlashtirib turadi. Bu dostonchilik maktabi baxshilarining so'z va sozni sayratish, noyob badihago'ylik talantlari haqida juda ko'plab naql va rivoyatlar xalq orasida bugungi kunlargacha saqlanib qolgan. Bu kabi baxshilarimiz xalqimizning qadimiy urf – odatlari, ruhiyati va bahodirlik hislatlarini "Alpomish", "G

o'ro'g'li", "Rustamxon" kabi go'zal dostonlarda ko'ylab, tinglovchilar auditoriyasini jalb etishga harakat qilganlar. Jonli ijroda badihago'ylik salohiyatlarini namoyish qilib, ma'naviy barkamollikning yuksalishiga xizmat qilganlar. Xuddi shunday umumiylik Beshqo'ton Boysun dostonchilik maktabi baxshilari repertuariga ham xos bo'lib, juda ko'plab an'anaviy dostonlarni ijro etib, xalqimiz olqishiga sazovor bo'lganlar. Abdurasul yuzboshi, Sherdan

¹ Afzalov M. O'zbek xalq shoirlari// Sharq yulduzi, jurnal. 1940. №

Mardonaqul, Alim yuzboshi, Eshmurod Sherdan o'g'li, Normurod Poyon o'g'li, Boymurod Boymat o'g'li, Eshqobil Qo'shoq, Mulla Ermamat Badalov va boshqa ko'plab baxshilar xuddi shu maktablarning iste'dodli ijodkor baxshilaridandir. Shu bilan bir qatorda ushbu maktablarning g'oyaviy yo'nalishi va repertuar birligi umumiy ko'rinishda bo'lsada, ijro usullari, poetik ifodadagi o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farq qilganlar. Buni professor H.Zarifov Sherobod dostonchiligi misolida ko'rsatib bergan edi: "Sherobod baxshilari doimiy ravishda og'zaki traditsiyani davom ettirib kelganlar. Ular o'zlarining repertuarlari va ijro usullari jihatidan bizga ma'lum dostonchilar bilan umumiy tomonlarga ega. Shu bilan birga ularning ba'zi bir o'zlariga xos xususiyatlari ham mavjud, repertuarida boshqa viloyatlarda bo'lmagan ayrim dostonlar, jumladan, Go'ro'g'lining o'limi haqida doston bor".¹

Haqiqatan ham Sherobod dostonchilik maktabi "...boshqa joylarda noma'lum bir qator sujetlarni, ayrim qadimiy motiv va tasavvurlarini saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir".² Bugungi dostonchilikning Janubiy O'zbekistonda davom etishi, saqlanishida shu maktabning Umir shoir Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li kabi badihago'y baxshilarning Qodir Rahimov, Xushvaqt Mardonaqulov, Qora va Chori Umirovlar, Chorshanbi Rahmatullayev kabi shogirdlarni tarbiyalab yetishtirganliklari bo'ldi, desak xato bo'lmas. An'anaviy doston ijro etish usullarini, yo'llarini puxta o'zlashtirgan bu kabi baxshilar ustozlari an'anasiga sodiq qolgan holda Shoberdi Boltayev, Boborayim Mamatmurodov, Abdunazar Poyonov, Ro'zi Qulto'rayev, Qahhor Rahimov, Jovli Tangirov, Abdusalom Ergashev, Abduqahhor Umirov, Abdumurod Qodir o'g'li va boshqa bir qator baxshilarni yetishtirdilarki, ular bugungi jonli ijroda dostonlar kuylab kelmoqdalar.

Qamay dostonchilik maktabi baxshilari "xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor bergan"³ bo'lsalar, Chiroqchi dostonchilik maktabi baxshilari uchun xos usullardan biri doston matnlarini sho'x, quvnoq kuylashdan iboratligidadir. Ushbu maktabning so'nggi vakili bo'lmish Shomurod Tog'ay o'g'li, Azim baxshi Xo'jayevlar repertuarida hozirgi kunda ham ushbu maktabga xos ijro usullari oz bo'lsada, saqlanib qolgan. Vohadagi Boysun va Beshqo'ton dostonchilik maktabi baxshilari ham ijroda o'zlariga xos poetik usullar bilan alohida ajralib, xalqimizning ma'naviy-ruhiy kamolotini yuksaltirishga munosib ulush qo'shganlar.

Ayni vaqtda Janubiy O'zbekiston dostonchilik maktabi baxshilari o'z hududlarida va respublikamizning boshqa joylaridagi dostonchilik maktabi baxshilari bilan ijodiy aloqada bo'lishganki, bunday uchrashuvlar baxshilar repertuarining boyishiga, badiiy salohiyatining kengayishiga katta ta'sir ko'rsatgan. H.Zarifov ta'kidlaganidek: "...Qashqadaryo, Surxondaryo va Janubiy Tojikiston baxshilari o'rtasida qadimdan aloqa bo'lgan. Bir necha Qashqadaryo

¹ Zarifov H. O'zbek folkloristikasi tarixidan//O'zbek folklori masalalari. T.:Fan.1970.-264-bet.

² Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. T.:Fan 1997.38-bet.

³ Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. T.: Fan", 1979. 39-bet.

baxshilari Sherobod dostonchilari o'rtasida tarbiyalangan. Bular orasida zamonaviy termalarda muhim asarlar, hatto epik asarlar yaratgan talantlilari anchaginadir".¹ Dostonchilik maktablari o'rtasidagi o'zaro munozaralar, tortishuvlar, bir-biriga bo'lgan tanqidiy yondoshuvlar baxshilar san'ati va mahoratining o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chiroqchilik Mardon shoirning Samarqand viloyatida o'nga yaqin shogird yetishtirgani, narpaylik Islom shoirning Qashqadaryoga tez-tez kelib turishi fikrimizni isbotlaydi. Bu haqda shoirning o'zi shunday deydi:

*To'y qilsa chaqirgan Arg'onning cho'li,
Qo'ymay mehmon qilgan Qashqaning eli,
Xo'p qidirdim Qarshi, Qo'ng'iroq yog'iga,
Uch kun turib o'tdim Qorabog'iga,
To'rt kundan so'ng o'tdim Langar tog'iga*².

Baxshilar o'rtasidagi bunday o'zaro uchrashuvlar, aloqalar qadimdan mavjud bo'lib, ular repertuari va ijro mahoratining shakllanishiga turtki bo'lgan. Bunday holatlar respublikamizning boshqa hududlaridagi dostonchilik maktabi baxshilari o'rtasida ham davom etgan. Baxshichilik san'atida ustoz-shogirdlik an'anasi, doston ijro etish, dostonchilik an'alariga rioya qilish har doim muhim masalalardan hisoblangan. Shu sababli ham baxshilar asrlar davomida dostonchilik an'alariga qat'iy amal qilib kelganlar. Ustozlari orqali o'rgangan doston namunalarini xalq oldida namoyish qilib, repertuari mukammallashtirishga har doim intilganlar. Natijada baxshini hamma tinglar, olqishlar, uning san'ati xalq uchun madaniyat o'chog'i vazifasini o'tagan. Ana shu asriy orzular asosida baxshilar badiiy mukammal dostonlar kuylab, tinglovchilar auditoriyasini jalb etishga harakat qilganlar. Og'zaki epik an'ana har doim soz va so'z mutanosibligi asosida amalga oshirilgan. Soz va so'z birgalikda jonli ijroda muhim hisoblangan. Yozib olingan matn esa uning bir tomoni, xolos. Ammo baxshining ruhiy hissiyoti, dramatik rol bajarishi, do'mbiraning ming bir kuyi tinglovchiga faqat jonli ijrodagina zavq bag'ishlaydi. Demak, baxshichilik san'atida soz va so'z asosiy o'rin tutar ekan, ustoz o'z shogirdiga an'anaviy doston kuylash usullarini og'zaki (yodlatish) asosida amalga oshirgan. Hattoki, ayrim baxshilarning savodxonligi ham bunga monelik qila olmagan. Chunki "Epik kuylovchi tug'iladi, o'sadi, o'z san'atini o'rganib, repertuarini yaratadi va oxir oqibatda tinglovchilar oldida muntazam chiqish uchun usta baxshi bo'lib shakllanadi".³ Ana shu asosda baxshichilik san'ati qat'iy epik an'alarda shakllandi, o'ziga xos jonli ijroda yashab keldi. Ko'plab an'anaviy doston namunalarining ijro etilishi ham baxshichilik san'atidagi ijodiy jarayonlar bilan bog'liq holatlardandir. Ana shunday ijodiy jarayonlar ma'lum davr uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, XX asrda kechgan ilmiy-

¹ Zarifov H. O'zbek folkloristikasi tarixidan// O'zbek folklori masalalari. T.: Fan, 1970.-264 bet.

² Islom shoir Nazar o'g'li. Hasanxon. Doston. O'zbek xalq ijodi, ko'p tomlik. – T., 1976.-40-bet.

³ Putilov B.N. Epicheskoy skazitelstvo.-M., 1997.-str.80.

texnikaviy rivojlanish, globallashuv, axborot almashinuvining tezlashgani, xalqimiz ommaviy savodxonlik darajasining oshgani, yozma adabiyot va boshqa san'at turlarining xalq madaniy hayotidan keng o'rin olgani baxshichilik san'atining avvalgi mavqeyini ancha sustlashtirdi. Jonli og'zaki ijro va an'analarning ma'lum ma'noda o'zgarishiga olib keldi. Doston va uning ijrochilari dunyoqarashiga, ijro usuliga o'zgacha yondoshuv holatlarini shakllantirdi. Bunday o'zgarishlar baxshichilik san'atidagi qadimiy an'anaviy ijro jarayonlarini susaytirdi. Ijroda yangicha talqin va sahnaviy shakllar yuzaga keldi. Natijada baxshi tor doiradagina doston kuylaydigan bo'lib qoldi. Izlanishlar natijasi Surxondaryo-Qashqadaryo ijrochiligiga doira, ba'zan chanqovuzni olib kirishga sabab bo'ldi. Endilikda baxshilar to'ylarda do'mbiraga mikrofonni ulab, doira jo'rligida sho'x-sho'x termalar, dostonlardan parchalar ayta boshladilar. Do'mbira va doira jo'rligida sho'x ohanglar, davradagilar harakatini doston matniga qo'shib aytish, eposdagi o'ynoqi vaznlar va yengil she'riy misralardan foydalanishiga e'tibor qaratildi. Shu asosda doston kuylash usullari o'zgarib, u sahnaga ko'chdi. Bu harakatlar muayyan holatlarda baxshilar auditoriyasini saqlashga imkon yaratdi. Har bir yangilikka qiziquvchi xalqimiz baxshilarni chaqirtirib, butun kecha davomida doston aytirishga emas, balki ikki-uch soat davom etadigan to'yning tomosha qismida baxshilarga ham vaqt ajratib o'n, o'n besh minut dostonlardan parchalar, termalar eshitishga ko'nika boshladi. Buning uchun baxshilar davrani qizitish va o'zlariga jalb ettirish maqsadida sho'x matnlar, o'ynoqi kuylar topishi lozim edi. Shu asosda baxshilar "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kelinoy" dostonlaridan parchalar kuylab, yangicha usullarda doston ijro etish yo'llarini shakllantirdilar. Natijada dostonlardan bunday parchalar va ayrim termalar kuylash vohada keng tarqaldi, hamda ayrim o'zgarishlar bilan keng ijro etish taomiliga kirdi. Ana shunday izlanishlar natijasida baxshini yoshlar ham tinglar, u kuylayotgan davrada o'yinchilar ham chiqadigan bo'ldi. Ammo endi doston aytish an'anasi, usul va yo'llari buzilgan, matnlar sayozlashib qolayotgan edi.

Bunday yo'l 70-80 yillarda Qashqadaryo-Surxondaryodagi baxshilar orasida ommalashdi. Natijada ashulachilar singari baxshi-otarchilar guruhi shakllandi. Endilikda baxshilar yoshlarni ushbu san'atga jalb etish, qiziqtirish yo'llarini izlay boshladilar. Izlanishlar natijasi ma'lum ma'noda baxshichilik san'atining jonli ijroda davom etishiga sabab bo'lgan bo'lsa- da, ammo doston kuylash usullari o'zgarib an'anaviy xalqona ifoda maqsadining buzulishiga olib keldi. Boshqacha aytganda "Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida eposning jonli an'alarida "jonlanish" ko'zga tashlandi. Bunday jarayon iste'dodli dostonchilarning (masalan, qashqadaryolik Qodir Rahimov kabi) yetishib chiqishi va ularning ijodiy faoliyati bilan bog'liq, albatta. Ammo uni epos jonli og'zaki an'alarining yangilanishi yoki ko'hna an'analarning rivoji tarzida qarash mumkin emas. Chunki ko'p asrlik dostonchilik epik an'alarining asta-sekinlik bilan tadrijiy davomli ravishda so'na boshlashi juda ham murakkab dialektik jarayon bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy omillar ta'sirida turli

yerlarda turlicha kechadi. Shunday ekan, Sherobod dostonchilik maktabidagi (Qodir Rahimov, Xushvaqt Mardonaqulov, Chori Umirov, Shoberdi Boltayev, Boborayim Mamatmurodov kabi baxshilar faoliyatidagi) jonlanish ham epos og‘zaki an‘analari inqiroz davrining o‘ziga xos bir ko‘rinishi bo‘lib, uning asta-sekinlik bilan so‘na borishi qonuniy holdir”.¹ Shu asosda ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi o‘zgarishlar baxshilarning keng auditoriyasini cheklab qo‘ydi. Shogird baxshilarning ustozlar an‘anasini davom ettira olmasligi bu qadimiy san‘atning uzoq davom etmasligini ko‘rsatmoqda. Baxshichilik so‘nish davrida har bir poetik maktabning vakillari shu maktabning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qilardilarki, bunga Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Umir Safarovlarning ijodi guvoh. Janubiy O‘zbekistonda og‘zaki an‘anani og‘zaki asosda o‘rganib, uni keyingi avlodlarga yetkazishda ham Umir shoir Safarovdek baxshilarning o‘rni beqiyosdir. Umir baxshi dostonchilikda dong taratgan, an‘anaviy doston kuylash usul va yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, o‘ziga xos soz kuylashi, yoqimli ovozi, voqealarni qiziqarli va obrazli ta‘riflashi bilan alohida ajralib turgan. Bir qator talantli baxshi shogirdlarning tarbiyalanishiga sabab bo‘lgan. Hattoki, o‘z davrining so‘zga chechan baxshisi bo‘lgan Qodir baxshidek dostonchilar ham tog‘alari va bobosi taniqli baxshilar bo‘lishiga qaramasdan Umir shoirga shogird tushishga harakat qilgan. Bu haqda baxshining o‘zi shunday hikoya qilgan: “Men yetti yoshlarimda qishlog‘imizda to‘y bo‘ldi. Biz ham barcha bolalar kabi o‘yinkulgilar bilan mashg‘ul edik. Shunda odamlar: baxshi keldi, deb qolishdi uydan gilam poyondoz chiqarishdi. Qorabayir otdan qora soqolli, chaqnoq ko‘zli, qorin qo‘ygan etdor odam tushib, xurjundan do‘mbirasini olishi bilan odamlar oyog‘i ostiga poyondoz to‘shab, uygacha oyog‘ini quruq yerga bostirmay olib kirdi. Baxshining atrofidagilar bilan salomlashib, ko‘rishishiga ham qo‘yishmadi. Shu yerdayoq murg‘ak qalbmida bunchalik izzat-hurmat boisi nima, katta bo‘lsam men ham shunday e‘tiborda bo‘larmikanman, degan o‘y keldi. Bir zumda vujudimga ichkaridan taralayotgan do‘mbira ohanglari kira boshladi”.² Ana shunday havas, orzu-istak Qodir baxshini Umir shoirga shogird bo‘lishga yetakladi. Ikki yil ustoz davrasida yurib, doston kuylash usul va yo‘llarini o‘rgandi. Bunday holat Janubiy O‘zbekistondagi an‘anaviy baxshichilik san‘atidagi oxirgi ustoz-shogirdchiliklardan edi. Endi ustozlar shogirdlarini o‘z uylarida ikki, uch yil olib yurmas, bilganlarini doimiy ravishda o‘rgatib, sinov sharti bilan talantini aniqlash, duo berish tugagan edi. Endilikda baxshilar shogird tayyorlashda yillar mobaynida emas, balki do‘mbira chaldirish, terma va dostonlardan parchalar aytirish asosida baxshichilik san‘atini yoshlarga o‘rgata bordilar. Natijada yosh baxshilar to‘y va ma‘rakalarda dostonlardan o‘rgangan parcha hamda termalardan namunalar aytar, kunlar, oylar mobaynida ijro etilgan “Alpomish”dek dostonlar ma‘lum daqiqalar asosida ijroga moslashdi. Shu

¹ Mirzayev T. O‘zbek dostonchiligi va “Alpomish” dostonining Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti haqida// Alpomish.. Doston. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti. -T.:1999.-5-bet.

² Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. -T.Mehnat.,1999.-300-bet.

asosda an'anaviy doston kuylash, doston matnlaridagi xalqona estetik munosabatlar zamonaviylashdi. Baxshichilik san'atidagi qadimiy an'anaviy ijro jarayonlari susaydi, uning sahnaviy shakllari yuzaga kela boshladi. Bu davrda ko'pchilik savodli baxshilarning yozma adabiyot namunalari bilan tanishuvlari, nashr etilgan doston variantlarini o'qib o'zlashtirishlari va jahon adabiyoti namoyondalari ijodidan bahramand bo'lishlari ular kuylagan dostonlarning g'oyaviy-mazmuniy talqinlarida o'zgachaliklarni yuzaga keltirdi. Baxshilar ijroda faqatgina ustozlari orqali o'rgangan doston variantlari bilan kifoyalanmasdan, turli-tuman manbalar orqali repertuarlarini shakllantirib bordilar. Natijada dostonchilik maktablariaro ayirmalar, ularning har biriga xos ijro yo'llari, usullari umumlasha boshladi. Bir maktabga xos dostonlar ikkinchi maktab baxshilari tomonidan o'zlashtirildi. Bir vaqtlar "Yozma adabiyot namunalari bilan tanishish, boshqa xalqlar folkloridan sujet o'zlashtirish va hamkorlik, qissaxonlarni tinglash va kitobxonlik yig'inlarida ishtirok etish, hofizlar, ashulachilar va muzikachilar davrasida bo'lish, an'anaviy doston motivlarini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yangicha kombinatsiyalarda berish asosida yoki o'zlari yashab turgan davrning ijtimoiy-maishiy masalalarini tasvirlovchi yangi-yangi asarlar yaratishga intilish, ertak sujetlarini qayta ishlash kabilar epik repertuarining boyib borishidagi asosiy omillar"¹ bo'lib, ijobiy ahamiyat kasb etgan edi. Chunki bu davrlarda dostonchilikning og'zaki barqaror an'analari davom etayotgan edi. Yozma adabiyot sujetlari asosida an'anaviy dostonlar yaratish dostonchilik gullab yashnagan davrda baxshilar repertuarida ijodiy qo'llanilgan. Ayniqsa, baxshilar mumtoz adabiyot namunalari bo'lmish "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Bahrom va Gulandom" kabi asarlar asosida an'anaviy dostonlar yaratganlar. Shu bilan bir qatorda ertak sujeti asosida ham romanik dostonlar ijro etganlar. Masalan: "Zevaxxon" dostonida mavjud kompozitsion qurilishning tashkil topishida an'anaviy ertak sujeti va motivlari, obrazlar sistemasi, monolog va dialoglar yetakchi rol o'ynagan. Bu doston mazmuni, asosan, "Ozodachehra", "Malikai Husnobod", "Tuhmatga uchragan kelin" kabi ertak sujetlariga yaqin bo'lib, g'oyaviy-tematik xususiyatlari jihatidan aynanlikka ega".² Bunday sujetlar asosida dostonlar yaratish epik an'analarga rivojlanishiga va baxshilar repertuarining ma'lum darajada boyishiga turtki bo'lgan. Hamda ular ko'pchilik baxshilar tomonidan o'zlashtirilgan va jonli og'zaki epik an'anada keng tarqalgan. Hattoki, epik an'anani ustozidan og'zaki o'rgangan ba'zi baxshilar repertuarida ham dostonlarni o'qib o'zlashtirish holatlari ijobiy natija bergan. Ularda an'anaviy uslub va ijro mutanosibligi buzilmagan. Misol uchun o'z davrining badihago'y baxshisi bo'lmish Qodir baxshi repertuaridagi "Kuntug'mish" dostoni haqida ham shunday fikr bildirish mumkin. Dostonchilik gullab yashnagan, epik an'analarga rioya qilingan bir vaqtlarda baxshilar faqat poetik maktablar doirasida dostonlar ijro etganlar. Bir maktabga xos doston namunalari boshqa maktab baxshilari repertuarida

¹ Mirzayev T. Folklor ijodkorlari va ijrochilari.// O'zbek folklori ocherklari. – T.: Fan, 1989. 23-bet.

² Imomov K. Dostonlarda ertak motivlari// O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3-kitob.-T.:Fan,1973. 97-bet.

o'zlashmagan. Masalan, Qo'rg'on dostonchilik maktabi haqida fikr yuritganimizda bevosita "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Dalli", "Xushkeldi", "Qunduz bilan Yulduz", "Ravshan", "Kuntug'mish" va boshqa shu kabi dostonlarni ko'z oldimizda gavdalantiramiz. Hattoki, "Ravshan" o'zining badiiy yuksak ijro xususiyatlari bilan Jumanbulbulning "uch haydalgan shudgori" deb, unga nisbat beriladi. "Alpomish", "Malika ayyor", "Intizor", "Zulfizar bilan Avazxon" kabi dostonlar haqida fikr yuritilganda esa Bulung'ur dostonchilik maktabi baxshilari nomi tilga olinadi. Bu maktab baxshilarining poetik ifodadagi go'zal badiiy xususiyatlari ana shu dostonlarning shu maktab nomi bilan bog'lanishiga sabab bo'lgan.

Janubiy O'zbekiston dostonchiligida ham "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustam", "Avazxon", "Nurali" va boshqa turkumdagi ko'plab dostonlar sevib kuylangan. Ammo umumo'zbek dostonchilik maktabi baxshilari repertuarida uchramaydigan "Ollonazar Olchinbek", "Oychinor", "Kelinoy", "Oltin qovoq", "Zayidqul", "Malla savdogar", "Shahidnoma" kabi dostonlar borligi va ijro etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

Ayniqsa, "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlar voha baxshilari repertuarida alohida joy olishi bilan bir qatorda Go'ro'g'lining asrandi farzandi Avaz va uning farzandi Nurali haqidagi dostonlar ommalashgan. Hattoki, "Nurali" dostonlari alohida turkumlikni tashkil etgan.

"Nurali" turkumidagi dostonlarning ko'plab namunalari voha dostonchilik baxshilari nomi bilan bog'liqdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu vohada "Hasanxon" turkumi, "Kuntug'mish", "Murodxon" singari dostonlar ko'p ijro etilmagan. Ammo ba'zi baxshilarning savodxonligi, chop ettirilgan doston variantlarini o'qib o'zlashtirishlari bu voha dostonchiligida ham ana shunday dostonlarning ijro etilishiga sabab bo'lgan. Birgina yuqorida ko'rsatilgan doston namunalari Qodir Rahimov repertuaridan joy olishi ham shu bilan izohlanadi. Bu fikrni Qodir baxshining quyidagi so'zlaridan ham anglash mumkin: "-Men "Kuntug'mish" dostonini ustozlarimdan to'liq eshitib o'rganganim yo'q. Dostonning kitob bo'lib chiqqanini o'qib o'zlashtirganman. Ergash shoir Jumanbulbul o'g'li aytgan bu dostonni o'qib qoyil qolganman va bir o'qishdayoq yodlab olganman. Umrimda eng ko'p aytgan dostonlarimdan birinchisi "Alpomish" bo'lsa, ikkinchisi "Kuntug'mish", lekin "Kuntug'mish"ni qog'ozga tushirib o'tirmanglar, chunki uni Ergash ota shunday mukammal, yuksak darajada ijro etganki, men bu darajada qiyomiga yetkazib ijro eta olmayman. Ergash otadagi go'zal she'riyat, qahramonlar dardini yorita olish menga yoqadi".¹

Haqiqatdan ham, Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan bu doston o'zining, "...tasviriy vositalarga boyligi, tilining jozibadorligi, lirik yo'nalishning ustunligi, badiiy go'zalligi, kompozitsion pishiqligi bilan ajralib turadi".²

Qodir baxshi Ergash shoir aytgan sujet chizig'ini, kompozitsion qurilishni

¹ Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. 1-kitob.-T.: Mehnat.1999. 314-bet.

² Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari.-T.:Fan,1979. 118-bet.

saqlagan holda ko'pgina misralarni badiha asosida qayta ijro qilgan, ba'zi holatlarda o'zgarishlar yuzaga kelgan. Bir qator she'riy parchalar aynan saqlangan. Masalan:

*Ikkovimiz birday yetim,
Bog'da ochilgan gulday yetim,
Jannatdagi hurday yetim,
Ikki yetim bir bo'laylik.¹*

Ko'pgina o'rinlarda bandlar qayta ishlangan va o'zgarishga uchragan. Biz an'anaviy dostonlarning baxshilar ustozlaridan og'zaki o'rganishi emas, balki kitob orqali o'rganib, repertuarida o'zlashtirishi, ana shunday holatda ijroda qanday o'zgarishlar yuzaga keldi-yu, qanday badiha usullari shakllanganligini ikki baxshi repertuaridagi ba'zi epizodlarni tahlil qilish asosida ko'rib chiqsak. Bu Xolbeking savdogarlarga asir tushib, farzandlarini emizish uchun ulardan ruxsat so'rash iltijosidir: "...savdogarlar mol-mulkini ortib ketayapti. Xolbeka endi ketarini, ikki bolasini qolishini bilib, asta tuyaning ustiga turib, turgan savdogarlarga qarab: "- Og'ajonim, ochilmay gulim so'lami, ajal paymonam to'lami, men ketadigan kishi, ikki bolam qolami, shu ikki bolamga rahm qilinglar?", - deb savdogarlarga qarab, Xolbeking yig'lab turgan joyi:

*Ertan bilan bolalarim turgan yo'q,
Naylay endi taqdiriga ko'ngan yo'q.
Hech bo'lmasa, bir emizib kelayin,
Ikki bolam tani hali emgan yo'q.*

*Yoshlar oqar naylay endi ko'zimdan,
Tikanaklar o'sib kelar izimdan.
Erta bilan go'daklarim turgan yo'q,
Hech bo'lmasa bir o'payin yuzidan.*

Shu holat Ergash Jumanbulbul o'g'lida quyidagicha beriladi:

*Erta bilan uyqusidan turgan yo'q,
Hali och-da, oq sutimga to'ygan yo'q.
Ikki nodon begunohga rahm ayla,
Yangi turdi, nodonlarim emgan yo'q*

*O'zi nodon, alvon-alvon do'ngan yo'q,
Hali bular yetimlikka ko'ngan yo'q.
Qancha edi norastamning gunohi
Qorni ochdir, erta bilan turgan yo'q.² (198-bet)*

Har ikkala baxshida band tuzilishi, qofiyalanishi, bo'g'inlar soni, ifodalanayotgan fikr bir xil. Baxshilar farzandlaridan ayrilayotgan, hadsiz zulmga

¹ Kuntug'mish. Doston. Aytuvchi Qodir baxshi Rahimov. Magnitofon yozuvi.

² Kuntug'mish. Doston.//Orzigul: O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. (Misollarni shu nashrdan olib, qavs ichida sahifasini ko'rsatamiz).

duchor bo'lgan onaning ruhiy iztirobini badiiy yuksak tarzda bera olgan. Ammo Qodir baxshida "Taqdirga ko'ngan yo'q" deyilsa, Ergash shoirda "Yetimlikka ko'ngan yo'q" deyiladi. Bu ikki tushuncha bir xil emas. Ergash shoirda xususiyashtirish (individuallashtirish) ko'zga tashlansa, Qodir baxshida umumlashtiriladi, ma'no kengaytiriladi.

Ergash shoirda bolalar dardiga, alamiga, ular boshiga tushgan kulfatga urg'u berilsa, Qodir baxshida onaning og'ir ruhiy holati kuchliroq. Chunki hali bolalar taqdirida nima borligini ham, u chekayotgan azobni ham tushunmaydi.

Hadsiz kulfatlarga duchor bo'layotganini sezgan ona "Tikanaklar o'sib kelar izimdan" iborasi orqali so'nggi qismatini his etar ekan, hech bo'lmasa farzand yuzidan bir o'pishini iltijo qiladi. Emizishga rozi bo'lmagan dushmandan o'pishga ruxsat so'rash, vaqt, fursat muammosi bilan bog'liq.

Shu ikki bandning qiyosi shuni ko'rsatadiki, Qodir baxshi ikkinchi bandni boshqacharoq tasvirda berganligiga qaramay, umumiy badiiylik qonuniyatlari jihatidan qaraganda Ergash shoir matni ancha ustundir. Buning ustiga Qodir baxshi "ketayin" so'zi o'rniga "kelayin" so'zini noto'g'ri qo'llagan. Mantiq ushbu misraning "Hech bo'lmasa bir emizib ketayin" tarzida bo'lishini taqozo etadi. Shu epizodning so'nggi bandida Ergash shoir bu misrani xuddi shunday kuylagan:

*Bandadirman, Olloni yod etayin,
Yolborib, haqqa munojot etayin.
Ko'ngli qattiq, bag'ri toshdan, zolimlar,
Hech bo'lmasa, bir emizib ketayin. (199-bet).*

Har ikki varianda karvondagilar Xolbekaoning ko'z yoshlariga, ohu-nolasiga toqat qilolmay, karvonboshini Xolbeka bolalarining qisqa vaqt emizishiga ruxsat olishadi. Ammo, hali uyqudagi go'daklar emmoqchi emas, ular uchun dushman azobi ham, onaning ko'z yoshlari ham ahamiyatsiz. Shunda ona ularga iltijo qiladi. Ergash shoirda:

*Bolalarim, eminglarda to'yinglar,
Bu kundan kay ona dorni qo'yinglar,
Bu kundan kay ona senga qaydadir,
Oxirat libosin endi kiyinglar. (100-bet).*

Qodir baxshida:

*Sho'rlik bolam, emib norday to'yinglar,
Bu kundan qay ena dorni qo'yinglar,
Bu kundan qay ena senga qaydadir,
Ajal kafan bugun senga teginar.*

Ushbu har ikki to'rtlikda mantiqan bir fikr, bir ruhiy holat mavjud. Faqat misralardagi ayrim so'zlar almashgan xolos. Ammo bir so'z o'rniga uning sinonimini qo'llash ma'noga ta'sir etmaydi degani emas. Chunki har bir so'zning

o'z ma'no nozikligi bor va shu badiiyatga ta'sir qilishi tabiiy. Qodir baxshi Ergash shoir aytgan "Kuntug'mish" dostonini o'qib o'zlashtirgan, hamda uni og'zaki ijod qonuniyatlariga ko'ra sayqallashtirgan. "Bolalarim, eminglarda to'yinglar", misrasini "Sho'rlik bolam, emib norday to'yinglar" tarzida qo'llar ekan, misradagi bo'g'inlar soniga, qofiyaga o'zgartirish kiritmaydi. Baxshining mahorati tinglovchiga ruhiy ta'sir qilishdan iborat. Shu bois, og'ir kunda qolayotgan farzandlarini "sho'rlik" sifatlashi bilan ifodalaydi. Hozir bola g'amda qolayotgan bo'lsa ham, u ona uchun norday kuchli, qudratlidir. Oxirgi misradagi "oxirat libosi" va "ajal kafan" bir xil ma'noga yaqin bo'lsa-da, misra so'ngidagi "kiyinglar" va "teginar" so'zlari farqlanadi. Birinchisida qat'iy xulosa berilsa, ikkinchisida avaylash, asrash, omon qolishga ishonch istagi mavjud. Demoqchiki, o'lim xavfi boru, ammo xavf o'tib ketishi mumkin.

Bunday qiyoslarni keltirish orqali biz Qodir baxshining Ergash Jumanbulbul o'g'lidek baxshichilik an'alarini o'zlashtirgani, epik xotirada saqlaganligi va badiha qila olish mahoratining yuksak shakllanganligini ko'rsatishdir. Shu boisdan ham dostonidagi sujet va kompozitsion izchillik saqlangan, meyor va mutanosiblik buzilmagan. Bunday xususiyatlar Qodir baxshidek iste'dodli epos ijrochiligini o'zlashtirishda barqaror uzviylik qoidalariga amal qilgan baxshilar ijodi uchun xos bo'lgan holatlardandir.

Ammo baxshichilik san'ati so'nishi jarayonida an'anaviy epos ijrochiligiga sun'iy yondoshuv holatlari oqibatida repertuarni yozma manbalar asosisida boyitishga urinish sun'iy, ijodkorlik an'alarining buzilishiga olib keldi. Bunday namunalarni u yoki bu baxshi tajribasidagi yakka hodisalar sifatida baholash zarur. Bu jarayon bevosita an'anaviy dostonchilik usuliga bo'lgan sun'iy ijodkorlik hodisasi bo'lib, ko'proq Ro'zi baxshi Qulto'rayev kabi professional ta'lim olmagan baxshilar repertuarida ko'rina boshlandi. Ro'zi Qulto'rayev oliy ma'lumotli pedagog, "...u dastlab havaskor shoir sifatida ijod qildi. She'rlari tuman matbuotida ko'p bor chop etilgan. 70-yillarda tengdosh do'sti, marhum Qodir baxshi bilan hamkorlikda bo'lishi dostonchilik davralarida ko'p bor ishtirok etishi Ro'zi Qulto'ra o'g'lining baxshichilik iqtidorini yuzaga chiqardi".¹

Ko'rinib turibdiki, Ro'zi Qulto'rayev doston kuylash usullarini maxsus ustoz ta'limi asosida emas, faqat dostonchilar davrasida qatnashib o'rgangan. Shu boisdan ham bu kabi baxshilar ijrosida epos ijrochiligiga xos yo'l va usullar an'anaviy xususiyatlarini yo'qotar ekan. Chunki, "Epik an'ana har doim ham ayrim qobiliyatli va maxsus ta'lim olgan shaxslarga (baxshilarga-N.O.) tegishli bo'lgan"² ligini davrining mashhur badihago'y baxshilari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil shoir, Po'lkan shoir, Islom shoir, Umir shoir Safarov va boshqa talantli baxshilar repertuaridagi ana'naviy dostonlar asosida ko'rish mumkin. Maxsus ustoz tarbiyasini ko'rgan, an'anaviy doston kuylash usullarini puxta

¹ Sohibqironning tug'ilishi. Doston. Aytuvchi Ro'zi baxshi Qulto'rayev. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi mualliflari A.Qahhorov. A.Ershgashev. – Qarshi.1993. 3-bet

² Putilov B.N. Epicheskoy skazetelstvo. – M.,1997. str-80.

o'zlashtirgan baxshilar o'zlari bilgan dostonlarni ijro jarayonida boyitib, badihago'ylik sirlarini namoyon qilganlar. Shuningdek, o'zlari maxsus o'rganmagan dostonni repertuarlarida o'zlashtirmaganlar. Buni biz Ergash shoirdan yozib olingan "Oysuluv" dostonining bayoni misolida ko'rishimiz mumkin. "Oysuluv" – tarixiy-qahramonlik doston namunasi sifatida Qo'rg'on dostonchilik maktabi baxshilari repertuaridan joy olgan. Davrining so'zga chechan baxshisi Tilla kampirning sevib kuylagan dostonlaridan biri hisoblangan. Ergash shoirga otasi Jumanbulbulning aytishicha, "Tilla kampirning bir dostoni bor. Uni men ham bilmayman, Jossoq ham aytganini eshitmadim. Tilla kampir yosh vaqtida qo'shiq qilib aytar ekan, qarigan so'ng ertak qilib aytar edi. Men ko'pda quloq ham solmas edim, ertak-da, deb ketaverar edim". Bir kun: "Tilla kampirning ertagini aytib bering", - dedim otamga. Shunda shoir kulib: "Men momongday aytolmayman-da, bilganimni aytsam, aytib berayin", - deb yonboshlab yotib naql qilib edi".

Ergash shoir aytgan ushbu mulohazadan shunday xulosa chiqarish mumkinki, baxshilar an'anaviy dostonlarni ustozlaridan to'liq o'rganmasalar uni ijro etmaganlar. "Oysuluv" dostoni misolida xam shunday fikr bildirish mumkin. Dostonning sujeti, obrazlar xususiyatidagi o'xshash holatlar qadimgi O'rta Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan "To'maris" rivoyatiga yaqin turadi. Qahramonlik, mardlik, ona-Vatanra bo'lgan cheksiz muhabbat, dushmanga nafrat tuyg'ulari bilan aks ettirilgan ushbu rivoyat keyinroq xalq baxshilari repertuarida doston shaklida ijro etila boshlangan. Natijada rivoyat shaklidagi hikoyat doston namunasi sifatida ommalashgan bo'lsa-da, ijtimoiy-maishiy jarayonlar asosida XIX asrda baxshilar repertuaridan tushib qolgan. Uning badiiy mukammal og'zaki ijroda kuylangan matni bizgacha yetib kelmagan. Dostonning mazmuni, hikoyat shaklidagi matni ota-bola Jumanbulbul va Ergash shoirlar orqali bizgacha yetib kelgan. Ro'zi Qulto'rayev esa Ergash shoir aytgan bayon asosida undan doston yaratgan, hamda sun'iylikka yo'l qo'ygan. Undan yozib olingan dostonning boshlamasidayoq an'anaviy dostonlarga xos epik boshlanmaning buzilish holatlarini ko'rishimiz mumkin. Doston boshlanmasida: "Burungi zamonda Eron degan mamlakat bilan Turon degan mamlakat bir-biri bilan g'ash bo'ldi".¹

An'anaviy dostonlar boshlamasida ifoda etilayotgan voqeaning uzoq o'tmishga oid ekanligi, voqelik o'rni, qahramonlar shajarasi haqida fikr yuritilsa, Ro'zi baxshi ijrosida dastlab voqealar boshlamasi ekspozitsion tuzilmalarida yuzaga keladi. Yoki dostondagi epik voqelikni tasvirlashda yozma adabiyot namunalaridagi tasvir elementlari ko'zga tashlanadi. Chunki, epos qonuniyatlariga ko'ra baxshi ijro etayotgan doston matnini do'mbira jo'rligida ma'lum an'analar asosida kuylagan. Do'mbira harakatining ma'lum tebranishi matnning ruhiy jarayonda ifodalanishiga asos bo'lgan. Baxshilar shu asosda xotiradagi epik voqelikni ijroda mukammallashtirgan. Ro'zi baxshi ijrosidagi

¹ Oysuluv. Doston. Aytuvchi Ro'zi baxshi Qulto'rayev. Yozib oluvchilar A.Qahhorov, A.Ergashev. Qo'lyozma. 3O'FA inv. №1816.

dostonda bunday xususiyatlar ko'zga tashlanmaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, unda an'anaviy dostonlarga xos bandlar shakllantirilishi, ba'zan go'zal misralar to'qish hollari ham mavjudki, ular alohida o'rganishni talab qiladi.

Masalan:

*To'zon qilib Qaynarbuloq dashini,
Men olarman sonsiz yovning boshini,
Shunda ko'rsin Oysuluvning ishini,
Qirmiz qonga bo'yay tog'ning toshini.*

Dostonda bu kabi go'zal tashbehlar bilan ifodalangan misralar ko'plab o'rinlarda uchrasada, bu kabi dostonlar baxshichilik san'atining so'nish jarayonida yuzaga kelgan hodisa sifatida ahamiyatlidir. Shu boisdan ham ushbu doston boshqa baxshilar repertuarida o'zlashmadi va buni biz Ro'zi Qulto'rayev ijodidagi yakka hodisa sifatida baholaymiz. Baxshi repertuaridagi "Sohibqironning tug'ilishi" dostoni haqida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Doston "Temurnoma" qissasi sujeti asosida ijro qilingan. Bizning davrimizda baxshilarning chop ettirilgan asarlar sujeti asosida Amir Temur haqida doston kuylash holatlari yuzaga kela boshladi. Bu kabi xususiyatlar ma'lum hudud baxshilari ijrosida bo'lmagan dostonlarning o'sha baxshilar yashagan hududda tarqalishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Amir Temur haqida (ilmiy, badiiy) asarlarning ko'plab nusxalarda nashr qilinishi Janubiy O'zbekiston dostonchiligida ilgari mavjud bo'lmagan epos namunalarining ijro etilishi yuzaga keldi. "Sohibqironning tug'ilishi" (Ro'zi Qulto'rayev), "Amir Temurning tug'ilishi va yoshligi" (Chori baxshi Umirov), "Temur va Boyazid" (Qahhor Rahimov) kabilar shunday dostonlardandir.

XX asrning boshlarida an'anaviy dostonchilik gullab yashnagan, baxshilarning epik ijroga munosabati kuchli bir paytlarda ham Amir Temur haqida dostonlar borligi qayd etilmagan. Shu bilan bir qatorda 40-60-yillar davomida respublikamizning epik an'analari rivojlangan hududlarida uyushtirilgan folklor ekspeditsiyalarida Amir Temur haqida dostonlar yozib olinganligini uchratmadik. Ammo buyuk sarkarda haqida ertak namunalari yozib olingan. Baxshilar repertuarida tarixiy mavzudagi "Shayboniyxon", "Oychinor" va boshqa shu kabi dostonlarning bo'lganligi hamda yozib olinganligi shuni ko'rsatadiki, bir vaqtlar epik repertuarda Amir Temur haqida ham dostonlar bo'lgan bo'lishi kerak. Yozma adabiyotdagi ayrim qissalar, Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" qissasi shundan dalolat beradi. Ushbu qissaning chop ettirilishi esa baxshilar repertuarida Amir Temur siymosi bilan bog'liq dostonlarning ijro etilishi va jonlanishiga sabab bo'ldi. Natijada biz yuqorida tilga olgan sarkarda haqidagi dostonlar yasaldi va ijro etildi. Bunday holatlarni biz "Temurnoma" va "Sohibqironning tug'ilishi" dostonlari misolida qiyoslasak.

Ma'lumki, "Temurnoma"¹ asari Salohiddin Toshkandiy qalamiga mansub bo'lib, u dastlab 1908-yilda toshbosma asosida, 1990-yilda esa adabiyotshunos olim P.Ravshanov tahririda qayta nashr qilindi.

Asarda Amir Temurning tug'ilishi bilan bog'liq voqelik quyidagi sujet yo'nalishida tasvirlanadi:

Amir Temurning otasi To'rag'ay bahodirning kelib chiqishi Qorachor no'yonlaridan bo'lib, Shahrisabz xalqi orasida juda katta obro'ga ega edi. To'rag'ay bahodir ov qilib yurganida bir kiyikka ko'zi tushadi, kiyik qo'ylarning ichida yurar edi. To'rag'ayning cho'poni tush ko'rib, tushida yashil kiyimli kishi To'rag'ay bahodirga aytginki, "Shayx-ul a'lam qoshiga borib, uning qizini olsin", - deydi. Voqealar rivoji To'rag'ay bahodirning Buxoroga borishi, Shayx-ul a'lamning shartlarini bajarib, Tegina mohga uylanib uni Shahrisabzga olib kelishi kabi tasvirlar bilan davom etadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Bayonqulixon O'g'lon Qashg'arni musodara qilganini, To'rag'ay bahodir Karkondan qo'shin olib, O'g'lon lashkariga qarshi jang qilishga qarshi borishi kerakligi haqida maktub jo'nattiradi. Vatan himoyasi uchun otlangan To'rag'ay bahodir esa sevimli yorini Yo'qun xotinga topshirib, o'zi O'g'lon lashkari bilan jang qilish uchun ketadi. Dushman uchun qo'l kelgan, voqealar rivojiga kontrast holat yaratgan Yo'qun xotin Tegina mohni o'ldirish uchun turli xil yovuz niyatlar bilan Moydun quldan foydalanadi. Ana shunday qiziqarli epizodlarni qamrab olgan "Temurnoma" asarining sujet yo'nalishi diniy rivoyatlar, afsonalar asosida keskin tus oladi. Amir Temurning quduqda ilohiy tug'ilishi, Choki arab xonadonida ulg'ayishi, yetti iqlim hukmdorlarining undan xabar topishi va Bayonqulixonga elchi yuborib, Sohibqironning dunyoga kelganligi, qutulish choralarini izlashni aytadilar. Sarosimaga tushgan Bayonqulixon qur'ado'zlarni ishga solib, sohibqiron ulg'ayayotgan manzilni aniqlash, uni o'ldirish uchun qo'shinni yuboradi. An'anaviy doston qahramonlari kabi go'dak A.Temur ham piri shayx-ul a'lam tomonidan ilohiy tarzda saqlanib qolinadi. Asar yechimida esa To'rag'ay bahodirning urushdan g'alaba bilan qaytishi, xotini Tegina moh va o'g'li Temur bilan topishishi epizodlari ko'rsatiladi. Yaxshilik-ezgulikning g'alabasi, yomonlik-qabohatning iskanjasi kabi tushunchalarni ifodalovchi Amir Temurning tug'ilishi va bolaligini aks ettiruvchi ushbu asar ana shunday qiziqarli voqealar bilan yakunlanadi.

Ro'zi baxshi Qulto'rayev repertuaridan joy olgan "Sohibqironning tug'ilishi" dostoni aynan "Temurnoma"dagi sujet chizig'i yo'nalishida tasvirlangan. Dostonda keskin va ziddiyatli asosda davom etgan voqealar rivojining yechilishi, asosiy konfliktning sodir bo'lishida Oychaman boshliq To'rag'ay xotinlari amalga oshirgan razil niyatlarining puchga chiqishi, doston final qismida esa qahramonlarning bir-biri bilan topishishi vositalari tasvirlanadi. Garchi "Sohibqironning tug'ilishi" dostoni "Temurnoma" qissasi sujeti asosida ijro etilgan bo'lsa-da, epik voqelikning tasvirlanishi jihatidan hajman katta.

¹ Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. – T.:Cho'lpon, 1990.

Ayrim obrazlar xususiyati, kompozitsion tuzilishdagi lavhalar, epik tuzilmadagi nasr va nazmning mutunosib kelishi jihatidan alohida ajralib turadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, "Oysuluv", "Sohibqironning tug'ilishi" kabi dostonlar Ro'zi baxshi Qulto'rayev repertuarida yakka hodisa sifatida qolib ketdi va baxshilar ijrosida o'zlashmadi. Hatto, "Sohibqironning tug'ilishi" nashr etilgan bo'lsa-da, jonli epik an'anada tarqalmadi. Chunki, ularning dostonchilik og'zaki an'analari keng rivojlangan davrdagi matnlari bizgacha yetib kelmagan. Doston sujetining to'liq bo'lmagan holda saqlanib qolgan rivoyaviy ko'rinishlari (Ergash shoir bayoni va "Temurnoma"dagi rivoyat) asosida uni yangidan yaratishda yasamalikka yo'l qo'yilgan. Hattoki, bu kabi dostonlarni baxshining o'zidan ham ikkinchi marta so'ralganda boshdan oxir og'zaki ravishda kuylab bera olmasligi mumkin. Chunki, ular oldindan o'ylanib, yozib chiqilgan bir martalik akt sifatida yuzaga kelgan. Bunday hodisalar dostonchilikda og'zaki epik an'analarning so'na boshlagan davri uchun qonuniy bir holdir. Umuman olganda, ijtimoiy madaniy hayotimizga kirib kelgan radio, televideniye va zamonaviy san'at turlari baxshichilik san'atining avvalgi mavkeini ancha sustlashtirdi. Baxshilarning jonli epik an'analar asosida ijro qilishga imkon yaratmadi. Hattoki, bu davrda yashagan Kora va Chori Umirovlar, Chorshanbi Rahmatullayev, Xushvakt Mardonakulov, Abdunazar Poyonov, Shoberdi Boltayev, Bobomurod Mamatmurodov, Kahhor Rahimov kabi ustoz kurgan, ancha tanilgan baxshilar repertuaridagi dostonlarda xam kitobiylik, yasama ijodkorlik, bir dostonga xos xususiyatlarni ikkinchisi bilan aralashtirish kabi holatlar ustunlik qiladi. Ularda uzlarini u yoki bu dostonning muallifi darajasida his qilish holatlari kuchayib bormokda. Bunday holat yoppasiga soxta ijodkorlikka intilishni kuchaytirdiki, natijada dostonlarning an'anaviy matnlariga bular-bulmas, asossiz uzgartirishlar kiritishga olib keldi.

Baxshilar ijrochiligida epik xotira, bilim va dunyoqarashning o'rne

Jonli og'zaki epik an'analarning davom etishi, taraqqiyoti bevosita baxshilar xotirasi, bilimi va dunyoqarashi bilan bog'liq holatlardandir. Aynan XIX asrning oxiri va XX boshlari ijodkorlari ijodida ana shu uchlik uzviy bog'liqlik asosida davom etdi. Shu boisdan ham bu davrda yashagan Po'ltan shoir, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Umir shoir Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li kabi bir qator badihago'y baxshilar ustozlaridan o'rgangan dostonlarini keyingi avlod baxshilariga o'tkaza oldilar. Bu davrlarda epos ijrochiligi barqaror an'analarda uzviy yashayotgan edi. Bunday uzviylik baxshilar ijrochiligining shakllanishi, doston ijro etishlariga keng imkon yaratgan edi. Ko'pgina baxshi-shoirlar ustozlaridan o'rgangan terma va dostonlarini xotirada saqlab, bilimi hamda dunyoqarashida sayqallashtirib, badihago'ylik mahoratlarini namoyish qilganlar. Uzundan-uzoq nasriy va nazmiy misralarni yod olish, ijro etish hamda keng auditoriya oldiga muntazam chiqish qilish esa baxshidan katta mahorat va iste'dod talab qilgan. Doston kuylash mahoratlarini shakllantirish maqsadida baxshilar tinimsiz izlanib, egallagan bilim va ko'nikmalarini mukammallashtirganlar. Shu asosda baxshichilik san'ati jonli an'analarda yashab, estetik ahamiyat kasb etgan. Baxshichilik san'atida xotira, bilim va dunyoqarashning muhim rol o'ynashi, ijtimoiy-maishiy jarayonlar bilan bog'liq hodisalardir. Chunki baxshining xotira va bilimida saklagan doston kuylash usullari ijtimoiy jarayonlar bilan boglanishi shart bulgan holatlardandir. Baxshining xotirasi bu-epik voqelik, obraz, klishe, formula va boshqa shunday doston ijrochiligiga o'ziga xos an'anaviy sujet va kompozitsion tuzilmalardan iborat epik bilimlarni yodda saqlash. Demak, baxshichilik san'atida epik xotiraning o'ziga xos o'rne bor. Baxshi xotirasida saklangan an'anaviy doston kuylash usullari barqaror davom etdi. Ustoz baxshilar xotirasida saqlangan doston matnlari shogirdlar xotirasida shakllandi, dostonchilikning jonli an'analarda davom etishiga sabab bo'ldi. Epik xotiraviylik faqat doston matnlaridagi so'z bilan bog'liq holatlarni yodda saqlash emas, balki do'mbira jo'rliqidagi ohanglarni ham birgalikda ilg'ash, shu asosda doston ijro etish demakdir. Baxshichilik san'atida so'z va soz birligi muhim o'rin egallaydi. Baxshi o'zi ishtirok etmagan epik voqelikni dunyoqarashda shakllantirib, voqealar jarayonida ruhiy holatlarni tasvirlaydi, dramatik rol bajaradi. Shu asosda tinglovchilar auditoriyasini o'ziga jalb qilib, badihago'ylik sirlarini namoyish qiladi, usta baxshi bo'lib shakllanadi. Rus folklorshunosi B.N.Putilov ta'kidlaganidek: "Baxshi qo'shiqning muayyan matnini uning ohangi bilan birga xotirasida saqlashi kerak. Ohangni bilish matnning xotirada saqlashi va qayta tiklanishiga yordam beradi, lekin u baribir matnning xotirada qattiq muhrlanib qolishiga kafolat bermaydi. Qo'shiq matni o'z-o'zicha unutilishi, chalkashib ketishi, buzilishi mumkin. Agar ohang unutilsa,

baxshi eng yaxshi holda qo'shiq matnining "konspekt"ini tiklashga qodir bo'lishi mumkin, xolos".¹

Baxshi do'mbiraning ohangi asosida xotira prizmasida saqlagan doston voqealarini ko'z o'ngida gavdalantirib, badiha qiladi. Baxshilar ijrochiligida epik bilimlilikning ham o'ziga xos ahamiyati bor.

Baxshichilikda o'rganilgan barcha an'anaviy usullar, yo'llar epik bilimning qamrovi bilan belgilanadi. Baxshi ustozidan o'rgangan doston matnlarini asriy an'analar asosida egallagan bilimi va dunyoqarashda sayqallashtiradi hamda ijro etadi. Agar baxshichilik san'atida epik xotira, bilim kabi qismlar yo'qolsa, an'anaviy doston kuylash usullari ham so'nadi yoki baxshining ijro etgan dostoni ijodiy qo'llanma sifatida o'sha baxshi repertuari bilan bog'lanadi. Yoxud dostonlarning ijro jarayoni sustlashib, yangicha talqinlar bilan ommalashadi. Biz epik an'analarning baxshilar repertuarida o'ziga xos saqlanishi, bunda epik xotira, bilim va dunyoqarashning o'rni kabi masalalarni Janubiy O'zbekiston vohasi baxshilari repertuari misolida tahlil qilsak. Ma'lumki, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir shoir Safarov, Yusuf qori O'taganov, Bo'ri baxshi Ahmedov, Rajab baxshi Normurod o'g'li, Tog'ay shoir Mahmanov, Eshmurod baxshi, Toshmurod baxshi, Eshqobil Qo'shoqov singari ko'plab baxshilar doston aytish yo'llari, usullarini ustozlaridan og'zaki eshitib, og'zaki o'zlashtirganlar. Bu baxshilar ijodida barqaror uzviylik yetakchilik qilgan. Shu boisdan ham ular dostonlarida epos ijrochiligiga xos an'anaviy xususiyatlar to'la saqlangan, meyor va mutanosiblik buzilmagan. Bu kabi baxshilarimiz doston kuylash usullarini ustozlaridan og'zaki o'rganib o'zlashtirgan bo'lsalar, Qora va Chori Umirovlar, Qodir Rahimov, Hazratqul baxshi Xudoyberdiyev, Xushvaqt Mardonaqulov, Abdunazar Poyonov, Chorshanbi Rahmatullayev, Shoberdi Boltayev, Shomurod Tog'ayev, Qahhor Rahimov, Boborayim Mamatmurodov kabi ijodkorlar savodxon bo'lganligidan ustozlaridan eshitish bilan kifoyalanmay, nashr etilgan dostonlarni ham o'qib o'zlashtirganlar. Ular ijro etgan doston variantlari ustozlari variantlariga qaraganda farqlanadi. Bunday farqli xususiyatlar doston variantlaridagi sujet motivlarida, epik formulalarda, doston tuzilishidagi nasr va nazmning mutanosibligi jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fikrimizni har ikkala guruh baxshilari ijrosidagi doston variantlari, unda epik xotira, bilim va dunyoqarashning o'rni, umumiy holatdagi barqaror epik an'analarning ijro etilganligiga qaratsak.

Umumo'zbek dostonchiligida bo'lgani kabi Janubiy O'zbekiston baxshilari repertuarida ham "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Nurali" turkumiga oid an'anaviy dostonlar kuylanib kelingan. Ayniqsa, "Alpomish" dostoni umumo'zbek dostonchilik maktabi baxshilari repertuaridan alohida joy olgan va har bir baxshi ushbu dostonni mehr bilan ijro etgan. Dostonning Janubiy O'zbekistonda yashab ijod qilgan Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Mamadrayim yuzboshi, Umir shoir Safarov, Bo'riboy Ahmedov, Abdulla shoir Nurali o'g'li, Hamro Ergash o'g'li, Zohir Qo'chqorovdan yozib olingan variantlari professor T.Mirzayev tomonidan

¹ Bozorov A. Baxshi ijodining ayrim qirralari. -T.:Fan,1991.

yetarlicha tahlil qilingan.¹ Shu bilan bir qatorda doston variantlari biz yuqorida tilga olgan savodli baxshilar repertuaridan ham yozib olingan. Bunda voqealar bir xil sujet yo‘nalishi asosida bo‘lsa-da, farqlar ular ijrosidagi an‘anaviy motivlarning ishlanishi, epik formulalar va epik voqelikning badiiy tasvirlanish jarayonida, nazm va nasrdagi sodda voqeaband tuzilishdan tasvirni murakkablashtirish jarayonlarida ko‘rinadi. Zero, epik an‘analarni ustoz baxshilar kanday holatda uzlashtirdilaru, shogirdlar ijodida kanday uzgarishlar yuzaga keldi. Bunda epik xotira va bilimning urnini kursatish maqsadida biz Umir shoir Safarov variantidagi doston variantini uning shogirdlari Kora va Chori Umirovlar, Kodir Raximovlar ijrosidagi doston variantlariga kiyoslash asosida tahlil kilamiz. Jonli epik an‘analardagi uzgarishlar, farkli xususiyatlar ham xuddi ana shunday jarayonlarda ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlarni biz “Alpomish” dostoni misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Umir shoir varianti Janubiy O‘zbekiston baxshilari kuylagan dostonlarga nisbatan an‘anaviy motivlarning ishlanishi, kompozitsion izchilligi, voqealarning qiziqarliligi, epik an‘analarni o‘zida mujassamlashtirganligi, badiiy tasviriy vositalarning o‘rinli qo‘llanishi bilan alohida ajralib turadi. Bunday holat Qashqadaryo va Surxondaryodagi dostonchilikning qadimiy an‘analariga mosdir. Shu bilan birga boshqa joylardagi dostonchilik maktablari baxshilari repertuaridan yozib olingan «Alpomish» dostonining variantlari Janubiy O‘zbekiston variantlaridan ba‘zi motivlarning ishlanish jihatidan o‘zaro farqlanadi. Masalan, Samarqand dostonchiligida konfliktning kelib chiqishi aka-uka Boybo‘ri bilan Boysari o‘rtasidagi kelishmovchilik va Boysari boshliq qo‘ng‘irot urug‘ining qalmoq yurtiga ko‘chishiga zakot olish masalasi asosiy sabab bo‘lsa, janubiy voha variantlarida bu holat oilaviy-maishiy asosda yuzaga keladi. «Alpomish bola emasmidi, biroz o‘tkirroq edi. Oybarchin bilan hazillashib, Alpomish Oybarchinni bir shappotladi. Barchin ham erka qiz emasmi, yig‘lab uyiga, onasiga bordi. Oytug‘mish yig‘lab borgan qizini ko‘rib, joyidan irg‘ib turib, qizim sensan risku ro‘zim, gavhardan tiniq ko‘zim, tasadduqman sendan o‘zim, aytishing menga lozim, nima uchun xafa bo‘lib yig‘lab kelding?» - deb so‘radi».² Ana shu asosda konfliktning kelib chiqishi oilaviy-maishiy ko‘rinishda tasvirlangan. Umir shoir variantining bu o‘rinlarini Chori va Qora Umirovlar, Qodir Rahimov, Xushvaqt Mardonaqulovlar variantlariga qiyoslaganimizda, ular variantlarida Boysarining ko‘chish sabablarini ikkilantirilganligini, hatto uchlantirilganini ko‘ramiz. Masalan, Qora baxshi Umirov variantida konfliktning kelib chiqishidagi asosiy sabablar sifatida Alpomish bilan Barchin janjanlashuvlari sabab bo‘lgan oilaviy-maishiy holatlar bilan birga zakot so‘rash ham asos qilib olinadi. «Boybo‘ri kelib o‘glining kitob o‘qiyotganini bilib: o‘g‘lim mana botiru mulla bo‘lding, nima yaxshi, nima yomon, nima farzu nima sunnat, nima halolu nima harom, kim saxiyu, kim baxil ekanini bilgan bo‘lsang, shulardan aytsang,-deb so‘rab qoldi. Alpomish: «...kimdir mol dunyosini odamlar bilan baham ko‘rsa saxiydir, topganini qizganib bosib yesa

¹ Mirzayev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. –T.:Fan, 1968

² Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. ZO‘FA inv № 1254

baxildir», - deb javob berdi».¹ Dostonni ijro etgan har ikki baxshi ham SHerobod dostonchilik maktabi vakillaridir. Hatto, Qora baxshi Umir shoirning farzand shogirdi hisoblanadi va Alpomish dostonini ham bevosita Umir shoirdan o'rgangan bo'lsa-da, savodxonligi, dostonning nashr etilgan variantlarini o'qib o'zlashtirishi natijasida konfliktning kelib chiqishidagi zakot munozarasini ham qo'shgan. Qora va Chori Umirovlar, Chorshanbi Rahmatullayev, Xushvaqt Mardonaqulovlar ham «Alpomish» dostonini ustozlaridan ogzaki eshitib o'rgangan bo'lsalar, Fozil shoir varianti yoki dostonning boshqa chop ettirilgan variantlarini ham o'qib o'zlashtirganlar. Shu sababli ham bu kabi baxshilar «Allomish» dostonining SHerobod dostonchilik maktabiga xos xususiyatlarini to'la saqlay olmaganlar. An'analarni bilib-bilmay birlashtirish natijasida ular variantlarida qandaydir quramalik, hatgo bir-biriga zid tasvirlar paydo bo'ldi. Doston voqealariga XX asr kishisi dunyoqarashi asosida baho berish ko'zga tashlanadi. Bu narsa soxta variantlar va talqinlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Shunga qaramay, voha dostonchilaridan yozib olingan variantlar orasida badiiy jihatdan pishiq, ancha mukammallari ham mavjud. Jumladan, Qodir baxshi kuylagan «Alpomish» dostonida ham Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligiga xos xususiyatlar, konfliktning oilaviy-maishiy xarakterda yuzaga kelishi, Alpomishning Oytovkaga uylanishi, yo'lda sutdosh enchi tuyaga duch kelishi, yechimdagi parli yoydan foydalanishi kabilar aks etgan. Ayni vaqtda Fozil shoir variantining ta'sirida yoxud «Alpomish» dostonining variantlarini ko'plab baxshilardan eshitishi tufayli ustoz Umir shoir variantidan ancha mukammallikka ham erisha olgan. Qahramonlik shartlari Umir shoir variantida uchta bo'lsa, Qodir baxshida to'rttadir. Barchin obrazi yanada kuchaytirilgan. Bu holni Qultoy qiyofasidagi Alpomishning Barchin bilan yor-yor aytishuvi tasvirida yaqqol ko'rish mumkin:

Qultoy:

*Sumbul-sumbul sochingdi
Dol qo'yag'ay, yor-yor,
Xapamating bandini
Xo'p tuyag'ay, yor-yor,
Ultontoz ham yaxshi qul,
Sen tiyag'ay, yor-yor,
O'ng tizzangga ullar olib,
Ham suyag'ay, yor-yor,
Sumbil-sumbil sochingdi,
Yana sumbul sochingdi
Tarag'ayda, Barchinjon,
Oyna olib oq yuzingga
Qaragayda Barchinjon.*

Barchin:

¹ Alpomish. Doston. Aytuvchi Qora baxshi Umirov. Qo'lyozma. Qarshi DU. Folklor laboratoriyasi arxivi

*Lochin qo'ngan to'shimga
 Qarg'ani keltirma-yey,
 Tulpor yurgan dashima
 Eshakni keltirma-yey,
 It bolasi it bo'lar,
 Ot bo'lmaydi, yor-yor,
 Alpon to'ram ketganini
 Hech bildirma, yor-yor.
 Sumbul-sumbil sochimdi,
 Yana sumbul sochimdi,
 Taramay o'lay, boboya,
 Oyna solib oq yuzimga
 Qaramay o'lay, bobo-ya.¹*

Qodir baxshi ustozni aytgan sujetda bo'lmagan epizodni Fozil shoirdan o'rganib, uni badiiy mukammal tarzda ijro eta olgan. Fozil shoirda ana shu epizod yetti bo'g'inlik she'r tuzilishidan boshlanib, asosiy qism o'n to'rt bo'g'inlik misralarda ifoda etiladi va oxirida yana yettilik vaznda tugaydi. Qodir baxshida yetti bo'g'in to'la saqlangan. Fozil shoirda bandlar ikkilik, uchlik, to'rtlik, oltilik asosida tuzilgan bo'lsa, Qodir baxshida sakkizlik tizimida qat'iy saqlangan. Har banddan so'ng to'rt misra naqorat takrorlanadi. Bunday holat, birinchidan, Qodir baxshining savodxonligi, she'r nazariyasini puxta o'zlashtirganligi bilan bog'liq. Ikkinchidan, Fozil shoir variantida epik tasvir keng bo'lsa, Qodir Baxshida lirik kayfiyat ustunroq. Epik an'ananing ustozdan shogirdga og'zaki asosda yetib kelgan variantlariga e'tibor bersak, unda qadimiy dostonchilik san'atiga xos xususiyatlarning doston matnlarida saqlanganligiga duch kelamiz. Ayniqsa, bu holat dostonlar matnidagi epik formulalarni kullanishida ham ko'rinadi. Barkaror an'anaviylikning shakllanishi bevosita epik formulalarni urganish va doston matnlarida kullanishi bilan boglik holatlardandir. Baxshi xotirasida saklangan epik formulalar yordamida epik vokelikni shakllantiradi, jonli obraz yaratadi."Epik formula bu eposining yadrosidir... Og'zaki ijodning qonuniyati bitta bu epik formulaga asoslanganlik, bu ijodning og'zakiligini, an'anaviyligini ta'minlaydi. Epik formula bu eposining qurilmasi, suyagidir"². Epik formulalarning asardan asarga ko'chib yurishi obrazlar xususiyatidagi xatti-harakatlar va ruhiy jarayonlarning ifodalanishiga ham alohida joziba baxsh etadi. Xalqimizning uzoq o'tmish hayoti, urf-odatlar va tasavvurlari haqida ma'lum badiiy zavq uyg'otadi. Bu kabi xususiyatlar epik formulalarning an'anaviy dostonlar matnidagi bir ko'rinish bo'lsa, ikkinchidan, nazmiy misralarning goh boshida, goh o'rtasida kelib doston tasvirida ifoda etilayotgan voqelikka badiiy o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Banddagi misralarni bir-biriga ulashda muhim o'rin tutadi va baxshining badihago'yiligiga imkon yaratadi. Shu sababdan ustoz

¹ Alpomish. Doston. Qodir Rahimov varianti. Magnitofon yozuvi. Qarshi DU folklor laboratoriyasi arxivida saqlanadi

² Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. -T.: Fan, 2006. 46-b

baxshilar tomonidan shogird tayyorlashda epik formulalarni yodlatishga alohida e'tibor berilgan. Dostonlarning ustozdan shogirdga og'zaki asosda yetib kelgan variantlarida an'anaviy epik formulalarni qo'llanish usuli ustunlik qiladi. Epik formulalarning umumo'zbek dostonchiligida qo'llangan «Xazon urmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi», «Ot chopsa gumbirlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi», «Uchqur eding qanotingdan qayrilding, «Yugruk bo'lsang, tuyog'ingdan toyrilding», «Oshiqning faxmidir qorong'i kecha», «Bahorda ochilgan bog'ning gulisan», «Qizil gul ochilar g'unchadan g'uncha» va boshqa shu kabi an'anaviy qaytariq misralarning umumo'zbek dostonchiligida qo'llanilgan ko'rinishidan tashqari Janubiy O'zbekiston baxshilari ijrosida ham qo'llansa-da, ammo bu voqea baxshilari repertuarida alohida, ko'p qaytariladigan epik formulalar bor. «Baland tovlarda buktar qor», «Oy nechaga, nechaga, Qarang qorongu kechaga», «Holsirab labi qotadi», «Bunday otni so'rganim», «Osmonda uchgan qaldirg'och, Uchganda qanoti qiygoch», «Bulbul qushlarning chechasi», «Oq sovut to'nning jog'asi», «Qizil gullar so'lmasin», «Oqar daryoning oqishi» kabi epik formulalar bandlardagi qofiya, vaznga qarab o'zgara boradi. Bunday qaytariq misralarning voqea-hodisalar, qahramon ruhiyatidagi jarayonlarni ifodalashda muhim badiiylik kasb etishi bilan bir qatorda uning tarixiy ildiziga, ma'no mohiyatida xalqimizning qadimiy falsafiy qarashlari aks ettirilgan. Umir shoir «Alpomish»ida Alpomish onasi Kuntug'mish oyimdan Barchin xatini so'rab, xafa bo'lib, ruhiyati tushib turganini ko'rgan singlisi Qaldirg'och Barchin xatini akasi Allomishga beradi. Uni yori Barchin oldiga borishga, dushman azobidan himoya qilishga chorlar ekan, onasiga aytayotgan lirik ifodasida quyidagi an'anaviy qaytariq holiga aylanib qolgan misralardagi qizil sifatlashi va gul predmetiga fikrni qarataylik:

Qizil gulning sarg'aygani – so'lgani, Mard o'g'ilning uyalgani –o'lgani

Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, Qaldirg'och xitobi orqali epik qahramonni mardlikka, bahodirlikka, yor, oila sha'nini himoya qilishga, yigitlik gururini shakllantirishga harakat qilinmoqda. Misralardagi an'anaviy element vazifasini qizil sifatlashi va gul predmeti bajarmoqda. Qizil gul o'zining maftunkor rangi bilan butun o'simliklar dunyosi ichida husn, chiroy baxsh etadi. Uning qip-qizarib yashnab turishi ko'ngilga o'zgacha zavq bag'ishlaydi, uni junbushga keltiradi. Ammo gulning sarg'ayishi, so'lishi yaxshilik alomati emas. Qizil guldagi o'xshash xususiyatlar ramziy jihatdan qizlarga nisbatan badiiy ko'chim vazifasini o'taydi. Gulning qanchalik kishi qalbini maftunkor qilish xususiyatlari mavjud bo'lsa, qizlardagi go'zallik, latofat, nazokat kabi jihatlar ham bevosita o'xshashlik asosiga ko'ra bir-biriga parallel qilib tasvirlanadi. Shunday ekan, har ikkala obrazning ham juda noziklik xususiyatlari mavjudki, ularda nisbatan yupatish, erkalash, extiyotkorlik kabi hissiy munosabatlardan foydalanish zarur. Aks holda

esa gulning bevaqt xazonlik sari yuz tutishi, qalbning vayron bo'lishi, sinishi uni judolik tomon yetaklaydi. Tasvir jarayonidagi bunday holatlar gul va qizning poetik ifodadagi oddiy ko'chimlarga asoslangan badiiy xususiyatlarining zohiriy ma'nosi bo'lib, botiniy jihatdan olib qaralganda, qizil va gul predmetlari qizlarga nisbatan ramzlik baxsh etishi qadimiy asosga ega. Shuning uchun ham ramzlarning badiiy xususiyatlarini sharhlashga harakat qilar ekan N. Rubsov, jumladan, shunday deydi: «Ramz-bu hamma payt obraz. U hech qachon muayyan birgina ma'no bilan tenglashtirilishi mumkin emas, u hamma vaqt imkoniyatlar, ma'nolar istiqbolining yelpichig'idir. Ramzning bunday imkoniyatlar yelpichig'i ko'pincha parodaksal tarzda qarama-qarshi tomonlarni bog'laydi: ayni tabiatiga ko'ra mutlaqo boshqacha bo'lgan hodisalarni ifodalay boshlaydi»¹. Shunday ekan, xalqimizning animistik qarashlariga ko'ra o'simliklarni jonli mavjudot deb tasavvur qilinishi, ularni jinslardan tashkil topgan degan qarashlar mavjud bo'lgan. Gul-qadimiy asosiga ko'ra hosildorlik kultlari bilan bog'lanib, uning poetik ifodadagi mohiyati qiz bolaga nisbat qilib beriladi. Gulning tarkibidagi qizil sifatlashi an'anaviy tarzda bejiz qo'llanmay, uining qadimiy ildizida xalqimizning dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodining mifologik qarashlari o'z aksini topgan. Qizil predmeti ramzlik xususiyatiga ko'ra tiriklik, yasharish, hayotning davomiyligi kabi ma'no xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. Mohiyat e'tiboriga ko'ra osmon kul'tlari-Quyosh va Oy bilan bog'lanadi. Quyosh va Oy butun olamga yorug'lik, issiqlik baxshida etib, hayotning uzviy davom etishini ta'minlaydi. Hattoki, ko'pgina jahon xalqdari mifologiyasiga ko'ra, Quyosh va Oy er-xotin, ya'ni ularni juft unsur deb qarashlar mavjud. Ularning yer yuzida ko'rinmasligi qorong'ulik, zulmat. Ana shu qadimiy xususiyatlari jihatidan qizil predmeti har doim gulning (qiz bolaning) sifatlovchisi bo'lib, uning o'zga rangda tasvirlanishi poetik an'ananing buzilishiga sabab bo'ladi. Qizil gul ramziy ifodasining ana shu xususiyatlari dostonlar teksti tarkibida an'anaviy badiiylik vazifasini bajarib kelmoqda. Demak, quyosh qanchalik o'z shu'lasini bilan yer yuzini yorug' qilsa, uni jilolantirsa, gulni ham shu qadar erkalaydi, unga jonbaxsh ato etadi. Alpomishning mardligi, jasurligi Barchinni qanchalik ruhlantirsa, dushman iskanjasidan himoya qilsa, unga nisbatan mehr, qalbiga iliqlik tuyg'ularini uyg'otadi. Qaldirg'och xitobi orqali epik qahramonni marddikka, shijoatlilikka, yor, oila sha'nini himoya qilishga da'vat etilar ekan, uning kelajakdagi qahramonliklari, orzu-umidlarining amalga oshishiga, Barchin sadoqatining ro'yobga chiqishiga, ko'ngil gavharining yaralanmasligiga dalda berilmoqda. Ana shunday xususiyatlari jihatidan epik formulalar har doim dostonlar nazmiy

¹ Rubsov N.N. Simvol v iskusstve i jizni. –M.,1991.-str-176

matniga qadimiy an'ana asosida shakllanib kelganligi va misralar tarkibida badiiy mukammallik kasb etishi bilan baxshilar ijrosida alohida ifodaviylik baxsh etgan. Shuningdek, barqaror an'anaviy misralarning dostonlar matnida qo'llanishi, voqealar jarayonini ifodalashi, tasvirlanishiga ko'ra, epik an'ana asosida shakllanib kelgan bo'lsa-da, individual ijro jarayonida baxshilar talanti, badihago'yiligiga qarab unga turlicha yondashadilar. Masalan, ijro jarayonida baxshi barqaror misralardan nazmiy bayon tasvirida voqealar mohiyatiga qarab foydalansa-da, bu satrlarning bandlar tarkibida takror-takror qo'llanaverishi misradagi mazmun mohiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buni biz Chori baxshi Umirovdan yozib olingan «Malla savdogar» dostoni misolida ko'rishimiz mumkin:

*Baland tovlarning qorini,
Baland tovlar bo'ktar qorma,
Baland tovda bo'ktarilgan oppoq qor,
Baland tovlarda qorlarim,
Baland tovda bo'ktarilgan bastini,*

*Baland tovlarda oppoq qor,
Baland tovlar bo'ktarilgan qoringdi,
Baland tovlar boshi qalin qormikan,
Baland tovlarda bo'ktar qorin,
Baland tovda bo'ktarilgan qormisan...*

kabilar juda ko'plab o'rinlarda, turli shakllarda qo'llaniladiki, bunday meyordan ortiklik misralarda shakliy o'zgarishlar bilan takrorlansa-da, ijrochi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarda toliqtirish holatini vujudga keltiradi. Bunda badiiylikka nisbatan shaklbozlik ustunlik qilish holatlari sezilib turadi. Qodir va Qahhor Rahimovlar, Ro'zi Qulto'rayev repertuaridagi doston variantlariga nisbatan, Qora va Chori Umirovlar, Chorshanbi Rahmatullayev, Shoberdi Boltayev kabi baxshilar repertuaridagi dostonlarda an'anaviy epik formulalardan foydalanish kam uchraydi. Chunki baxshi xotirasida saqlangan epik bilim individuallashib, bu holat epik formulalarni ham qo'llash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardandir. Ana shu asosda epik formulalarni qo'llash tasvirdagi o'zining pand-nasihatga oid obrazlilikni kuchaytiradi. Qodir baxshi repertuaridagi dostonlar matnidagi tasvir jarayoniga e'tibor bersak, qahramon ruhiy holatini ochishda, maqollardan nasriy va nazmiy o'rinlarda juda ko'plab foydalaniladi. «G'upponoy» dostonida epik qahramon Nuralining cheksiz cho'lda ketayotgani, ot va o'zining holdan toygan ko'rinishidagi

tasviriga e'tibor berganda ana shu holat ko'zga tashlanadi :

*Ketishiga G'irotning
Ora cho'l changib qoldi.
Yo'l qayda-yu, el qayda,
Nurali gangib qoldi.
Ot boshiga kun tuvsu,
Suvliqlar bilan suv ichar.
Mardning boshiga kun tuvsu,
Etiklar bilan suv kechar.*

Ushbu misralarda G'irotni va Nurali ruhiyatini tasvirlashda baxshi xalq maqolidan badiha yo'li bilan foydalangan. Doston matnlarida an'anaviy formulalar o'rniga axloqiy-ta'limiy didaktik so'zlar va maqollardan ko'proq foydalangan, bular og'zaki ijro usulidan yozma adabiyotga yaqinlashuv holatini ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ldiki, epos ijrochiligi jonli an'analarda uzviy davom etgan vaqtlarda baxshilar doston matnida uchraydigan har bir detalni o'z o'rnida qo'llaganlar. Epik formulalar ham xuddi shunday ijro jarayonida an'anaviy asosda qo'llanilgan. Eng asosiysi esa baxshi xotirasida shakllangan. Baxshilar ijrochiligida epik xotira va bilimning muhim ahamiyat kasb etishini yuqorida qayd etib o'tgan edik. Baxshi ijro jarayonida xotirada saqlagan ko'plab nasriy va nazmiy misralarni gavdalantiradi va badiha qiladi. Epik xotiraviylik doston matnlaridagi nasriy va nazmiy misralarni ijro etish jarayonida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Chunki, baxshilar ijrochiligi bevosita nasriy va nazmiy misralarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Dostonlarda qahramon ruhiyati, lirik kechinmalari, ichki his-tuygularini yoritishda, albatta nazmiy misralarning o'rnini beqiyosdir. Ammo bu jarayon bevosita baxshining badiiy salohiyatiga, nazmiy misralar ohangdorligini ijro jarayonida bera olish qobiliyatiga bog'liq. Garchi Janubiy O'zbekiston baxshilari repertuaridagi an'anaviy dostonlar she'riy tuzilishida ham nazmiy ohangdorlik kuchli, obrazli tasvirlansa-da, ularda lirik tasvirning epik an'analarga asosida saqlanganligini kuzatish mumkin. Ma'lumki, o'zbek xalq dostonlari uchun xos bo'lgan nazmiy tuzilish barmoq vaznining 7, 8, 11 bo'g'inli ko'rinishi umumiy tipik hol bo'lib, qahramon ruhiyati, holati va xatti-harakatining voqealar jarayoniga, tasvirlanishiga qarab erkin tarzda o'zgarib boradi. Bunda dostonlar tekstida qofiya va band tuzilishi ma'lum tartiblilik asosida emas, balki erkin harakat va voqeaband tuzilish ko'rinishida ijro etilganligi bilan farqlanib turadi. Umir shoir Safarov repertuaridagi «Alpomish» dostonida Alpomish qalmoq yurtidan qaytib kelayotganida Oqdaryoga duch keladi. Mana shu holatni Umir shoir quyi dagi misralar uyg'undoshligi asosi da ijro etadi: «Boshdan o'tgan kunlarni aytib daryodan guzar so'rayapti:

*Oqdaryo deydi nomingdi,
Qaytarib oqqin damingdi,
Sayoz qilgin dumingdi,*

*Tagingdan ko'rsat qumingdi,
Yo'l ber Oqdaryo o'tayin,
Boybo'ri boyga yetayin».*

Umir shoir dostonidagi nazmiy qismlar qofiyaga ko'ra, asosan, to'rtlik band tuzilishidan iborat bo'lsa-da, bunda izchillik va davomiylik ko'zga tashlanmaydi. Bandlar ikkilik, uchlik, to'rtlik, beshlik, oltilik va hokazo tarzda kombinatsiyalasha beradi. Hatto bandlardan ajralgan alohida misralar ham mavjud. Yuqoridagi Alpomishning Oqdaryoga murojaatida bandlar tuzilishi dastlab oltilik, to'rtlik, ikkilik bo'lsada, matn oxirigacha izchil davom etmaydi. Chunki «Ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrning mikdori va xarakteri har bir bandning ritmik bir xilligini yagona vazn yaxlitligi hamda qofiya uygunligiga qarab, turli hajmdagi bandlar yuzaga keladi».¹ An'anaviy band tuzilishi haqida fikr yuritganda shuni ta'kidlash kerakki, ular bir xil bandlardan tashkil topmagan. Baxshi ijro jarayonida nazmiy misralarning band tuzilishi, ritmik birligiga yoki turoqlar soniga e'tibor bermasdan misralardagi qofiya tartibiga qarab erkin ijro etadi. Yuqorida ko'rsatilgan bandlardagi qofiya tuzilishi ham erkin bo'lib: a-a-a-a-b-b-v-v-v-b-b-g-d-d-d-b-b-ye-ye-ye-ye-b-b-j-j-j-j-z-j-j-j-j-b-i-i-y-i-i-i-b-i-i-i-i-b~k-k-k-k-b asosida shakllantirilgan. Misralar 7, 8, 11 bo'g'indan iborat. Misralardagi qofiyadosh bo'lib kelgan so'zlar ba'zan o'zak jihatidan bir-biriga to'g'ri kelmaydi, och qofiya asosida shakllantirilgan, an'anaviy qofiya vazifasini grammatik qo'shimchalar bajarmokda. Shuning uchun ham V.G.Belinskiy; «... xalq poeziyasida so'z qofiyasi emas, ma'no qofiyasi katta rol o'ynaydi», - deb xalq poeziyasidagi voqeaband she'r tuzilishiga xolisona baho bergan edi.² «Nuralining yutilishi»³ dostonida ham Go'ro'g'li tush ta'birini botirlariga aytayotgan tasvirida bandlardagi qofiya tuzilishining quyidagi arxaik ko'rinishini kuzatish mumkin: a-a-a-b-a-v-v-g-b-v-d-g-g-ye-ye-ye-b-ye-yo-yo-b-yo-j-j-b-j. Demak, yigirma sakkiz misradan iborat bo'lgan ushbu band tuzilishida ham qofiyaning erkin shakllantirilganligi, baxshi ijro jarayonida vokealar tizilmasiga ijodiy munosabatda bulganligi kuzga tashlanadi. Yoxud Boymurod Boymat o'g'lidan yozib olingan «Nurali va qari Ahmad» dostonida Go'ro'g'lining Yunus, Misqol parilariga dunyodan befarzand o'tdim, deb yig'lab turgan quyidagi shikoyat urinlariga ham e'tibor berganda band, qofiyaning misralararo shakllanishida erkin voqeabandlik holatda yuzaga kelganligini, turoqlar sonining ham goh qisqa, goh uzun takrorlanishini kuzatish mumkin. Oltmish misradan iborat bo'lgan band tuzilishi dastlab, 11,13 bo'g'inli, keyin esa 6, 7 bo'g'inli bo'lib, misralardagi voqelikning rivojlanish xususiyatiga qarab, turoqlar ham o'zgara boradi:

¹ Rahmonov B. O'zbek xalq epik she'r tuzilishi. Nomzod.diss-yasi.-T.:1998. 97-b

² Belinskiy V.G. Polnoy sobraniye sochineniy.-M.,1954. str.428

³ Nuralining yutilishi. Doston. Aytuvchi Bo'ri baxshi Ahmedov, yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Sarimsoqov B//Nurali. O'zbek xalq ijodi, ko'p tomlik. -T.,1989. 219-b

*Oq ayil tortildi oltin to‘qasiz,
Ipak to‘nlar kiyilgandir yoqasiz,
O‘la ketsam molu mulkim qolar egasiz,
Dunyodan befarzand o‘tdim, yolgizman
...Oylar qiblaga botdi,
O‘ylasam umr o‘tdi.
Bir siz emas yolg‘onchida befarzand,
Dunyodan azizlar befarzand o‘tdim.*

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, baxshilar asarning g‘oyasi hamda qahramonlar ruhiyatini ochib berishda vaznda ham, turoq tuzilishida ham ma‘lum tartiblilik asosida emas, balki barqaror tuzilishiga harakat qilib ijro etmoqdalar. Qodir Rahimov, Qora va Chori Umirovlar, Chorshanbi Rahmatullayev, Ro‘zi Qulto‘rayev, Qahhor Rahimov kabi baxshilar repertuaridagi doston variantlarida ham nasr va nazm mutanosibligiga amal qilinsa-da, ammo ular ijrosidagi dostonlarda an‘anaviy epik she‘r tuzilishining o‘zgargan holatda uchraganligini kuzatish mumkin. Bu kabi baxshilarning savodxonligi, she‘r nazariyasidan xabardorligi, ijro etgan dostonlaridagi she‘riy tuzilishni yozma she‘r nazariyasiga yaqinlashtirish holatlarida, bandlarning qat‘iylashuvida, vaznlardagi qisqachozlikda, qofiyalanish tartibida ko‘rinadi. Nasr qismi ham undagi an‘anaviylikni hisobga olmaganda, yozma nasrga yaqinlashib borayotganligini kuzatamiz. Masalan, Qodir baxshi repertuarida eng kam qo‘llanadigan ikkilik bandlar a-a-b-b masnaviy shaklda, asosiy bandlar esa to‘rt misralik bo‘lib, ularda qofiyalanishning besh xil ko‘rinishi uchraydi. To‘rtlik misralardagi qofiyalanishning bandlar bo‘yicha eng faol ishtirok etishi a-a-b-a va a-a-a-b shaklida yuzaga keladi.

*Ust-ustiga xezladi,
G‘irot dam-dam tezladi,
Otdan chiqqan shamolga
Oqardaryo muzladi.*

Besh misralik bandlar Qodir baxshi ijodida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bunday bandlarda asosiy fikr so‘nggi ikki yoki bir misraga tushib, bu misralar qisman o‘zgarishlarga uchragan holda bandlararo takrorlanadi:

*Ot turmas qozikda biya chopgan so‘ng,
Sovliqlar nozlanar qo‘chqor topgan so‘ng,
Xamir ham toboqda turmas ko‘pgan so‘ng,
Gapim olmas checham bir oy o‘tgan so‘ng,
Ne aytsang qilayin, opket chechamni.*

Bu kabi bandlarda yuqoridagidek a-a-a-a-b tarzidan tashqari a-a-a-b-b, a-a-b-a-b, tarzida qofiyalanish keng qo‘llaniladi. Chori va Qora Umirovlar, Chorshanbi

baxshi, Qahhor Rahimovlar ham to‘rtlik, beshlik, oltilik (ba’zan yettilik, sakkizlik) bandlardan unumli foydalanadilar. Chori Umirov repertuaridagi «Amir Temurning tug‘ilishi va yoshligi» dostonida to‘rtlik bandlarning a-a-b-a, a-a-a-b ko‘rinishi qo‘llansa-da, yetakchi bandlar beshlik bo‘lib, a-a-a-b-a, a-a-a-a-b tarzida qofiyalanadi.

*Bulbul qushlar qolar bo‘ldi chegasiz,
Oq sovutli to‘nim qoldi jogasiz,
Yolg‘iz qizim qolar bo‘ldi og‘asiz,
Maslahatga men chaqirdim, beklarim,
O‘lar bo‘lsam murdam qolar egasiz.*

Chorshanbi Rahmatullayevda ham beshliklar a-a-a-a-a, a-a-a-a-b, a-a-a-b-a tarzida, yetgiliklar a-a-a-a-a-a-b ko‘rinishida qofiyalanadi. Bandlar tarkibidagi qofiyalanish birinchi bandda a-a-a-b-a ko‘rinishda bo‘lsa, oxirgi bandgacha (ba’zan o‘zgargan holda) qofiya tuzilishi shu xilda saqlanadi. Nazmiy misralarni baxshilar tomonidan bunday tartibli asosda shakllantirilishi an’anaviy dostonchilikning rivojlanishi uchun sifat o‘zgaruviga erishildi degani emas, balki baxshilarning savodxonligi, she’r nazariyasini puxta o‘zlashtirganliklari sababli ijro jarayonida yozma she’r tuzilishiga xos unsurlarning kirib kelish oqibatidir. Bunday hol dostonchilikda kitobiylikning kuchayib borayotganligini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda bu narsa dostonchilikdagi qandaydir o‘zgarish yoki rivojlanish emas, balki epos jonli og‘zaki an’analarini so‘nish jarayonidagi vaqtinchalik hodisalar sifatida baholanishi zarur.

Baxshichilik san’atidagi so‘nish jarayonlari an’anaviy ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi sustlashuv yoki aksincha unga amal qilmaslik natijasida baxshilarning an’anaviy dostonlar matniga erkin yondosha boshlaganlarida ham ko‘rinadi. Bunday jarayonlar doston sujet yo‘nalishidagi voqealar tasvirini murakkablashtirish (yozma adabiyot ko‘rinishi asosida shakllantirish), baxshining barcha bilganlarini bir dostonga tiqish, mavjud variantlardan boshqacharoq qilib aytishga intilish, bir dostonga xos epizodlarni boshqasiga ko‘chirish kabi holatlarda ham ko‘zga tashlanmokda. Misol uchun qizlarning sayilboqqa chiqish tasviri romanik dostonlar uchun xos bo‘lib, bunday tasvir qahramonlik dostonlarida deyarli uchramaydi. Ba’zan bir doston turiga xos bo‘lgan xususiyatlarning ikkinchisi tarkibida uchrashini bunday dostonlarni baxshilar baravar kuylab kelganligi sababli keyingi davrlarda ro‘y bergan hodisalardan biri sifatida baholash mumkin. «Alpomish» qahramonlik dostonining ayrim variantlarida romanik dostonlarga xos xususiyatlarning kirib qolishi ham shu bilan izohlanadi. Masalan, Umir shoir repertuaridagi «Alpomish» dostonida Tovkaning kanizlari bilan Chilbir cho‘lidagi qo‘rg‘onchasiga sayilboqqa chiqish epizodi yoki Berdi baxshi variantidagi «Men seni sevdim, Tovkajon, Sen meni sevgin, Tovkajon» tasviri shunday o‘rinlardandir. Ammo bu variantlarda meyor, mutanosiblik to‘la saqlangan. Sun‘iylik ko‘zga tashlanmaydi. Xushvaqt baxshi «Alpomish» ida ham qizlarning sayilboqqa chiqish

tasviri bo'lsa-da, tasvirdagi xususiyatlarning o'zgachaligi bilan farqlanib turadi. Boysari bilan Boybo'ri o'rtasida kelib chiqqan nizo Boysari boshliq qo'ng'iroq urug'ining qalmoq yurtiga ko'chib ketishiga sabab bo'ladi. Bundan xabar topgan Toychixon yasovullarini Baysarining oldiga yuboradi. Boysarining kalmok yurtiga borishi, bundan xabar topgan Toychixonning yasovullarini yuborishi, yasovullar kaytar chogida Barchin boshliq kanizlarga duch kelish epizodi tasvirlangan. "Ha, aytganlaringizni, albatta Toychixonga yetkazamiz», -deb otlariga minishayotgandi, ittifoqo, sayriboqqa chiqib ketgan Barchin kanizlari bilan yenib-tovlanib, gulday oralanib, ammo o'zi ham bilibmi-bilmay, ularga yaqinlashib qolsa bo'ladimi-a?

*...Qorli tovlar gazasi,
Sochli miltiq dazasi,
Heyla, kelayotirlar
Suluvlarning tozasi.
Bitta quchib o'psangiz,
Hafta ketmas mazasi.
Chin oshiq bo'p ayrilsang,
Sira ketmas izzasi.
Mana kelar Barchin yor,
Mana kelar Barchin yor,
Ko'zlari xumor-xumor»¹ - kabi juda uzoqdan-uzoq*

tasvir mavjud. Bu nday parchalar baxshining ma'lum ma'noda badiha qilishi, tasvirni kengaytirishga bo'lgan ijro jarayoni bilan bog'liq holatlardan hisoblansada, u dostonidagi voqealar tasviri bilan uyg'unlashib ketmagan. Doston tarkibiga tirkab qo'yilgan mustaqil termaga o'xshab qolgan. Umir shoir variantida Tovka boshliq kanizlarning sayilboqqa chiqish tasviri, garchi u dostoniga romanik dostonlar ta'sirida keyinchalik kirib qolgan bo'lsa-da, asarning umumiy kompozitsion qurilishi bilan bog'lanadi. Xushvaqt baxshi variantida esa, Barchinning kanizlari bilan sayilboqdan qaytib kelish tasviri epik voqelik bayonidan uzilib qolgan. Lirik ifodaning bunday ijro yo'nalshpi termalar va «Kelinoy» qo'shiqlariga xos. «Kelinoy» qo'shiqlaridagi qizlarning chiroyi, husni, latofati to'g'risidagi tasvirlar shundaygina Barchin va uning qizlariga ko'chirilgan. Parchaga «Mana kelar Barchin yor, Ko'zlari xumor-xumor» singari misralarning kiritilishi ham sun'iylikka barham bera olmagan. Xuddi shu dostonidagi Alpomishning Qalmoq eliga safari bilan bog'liq epizodda ham mantiqsizlik, baxshining an'anaviy doston ijrochiligiga zid buzib ijro etish holatlari ko'zga tashlanadi. Doston variantlarida Murodtepa qalmoq elidagi joyning nomi. Xushvaqt baxshi variantida esa bu holat ikkilantirilgan, hattoki, uning nomlanishi ham Boybo'ri nomi bilan bog'lanmoqda: "Mana endi buni Murod tuba deyishimizning mazmuni shundaki, Boybo'ri aytilgan edi: "O', farzand, men seni Xudodan jilab-siqtab so'rab olganman...Avvali Ollohning, keyin shu kishilarning karami bilan dunyoga kelding, shu tubada mening murodim hosil bo'ldi. Bolam, shuning uchun

¹ Alpomish. Doston. Aytuvchi Xushvaqt Mardonaqulov. Nashrga tayyorlovchi T.Turdiyev. T.Yozuvchi, 1998. 30-b

nomini Murod tuba deb qo'ydim. Agar shuning yoniga borsang, tubani uch marta ziyorat qil!" Fozil shoir variantida ana shu tasvir quyi dagicha ko'rsatiladi: "Alpomish cho'ponlarning qo'shxonasidan o'tlanib kelayotib edi. Toychi viloyatida, qalmoq degan tepasi bor edi, haddili baland edi, ustidan qanotli qush uchi b o'tolmas edi, har qanday odam chiqib, oyoq osti qilib ketolmas edi".¹ Fozil shoir variantida Murodtepaning qalmoq yurtida joylashganligi, Boysun-qo'ng'iro't yurtidan ancha olis ekanligi mantiqli asosda ko'rsatilmoqda. Xushvaqt baxshi bevosita Fozil shoir variantini ham o'qib o'zlashtirgani, hatto dostonidagi ko'plab misralar, tasvir jarayonlari aynan Fozil baxshidan o'zlashtirilganligi ko'zga tashlansada, xalq e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan tasvir jarayonlarini o'zgartiradi. An'analarga bilib-bilmay o'zgartirish kiritish yuqoridagi buzilish holatlarini shakllantirmoqda. Chunki doston variantlarida Murodtepani Boysari nomlaganligi qayd etilmagan. Baxshi esa ana shunday an'anaviy epizodlarni, tasvir elementlarini individuallashtirib, mantiqsizlik holatlarini yuzaga keltirgan. Dostonda bunday tasvirlar juda ko'plab o'rinlarda ko'zga tashanadi. Ayniqsa, Qorajonning musulmon bo'lishi, tush epizodlari doston matnlarida tushirib qoldirilgan, ular asoslanmaydi. Bularning barchasi baxshining an'anaviy doston ijrochiligiga amal kilmasligi, yoxud baxshi xotiraviyligining epos jonli ijro jarayonlaridagi sunish holatlari bilan boglik jarayonlardandir.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, baxshilar epik an'ana doirasida dostonlar ijro qilishga harakat qilsalar-da, bugungi adabiy-madaniy muhit tufayli o'zlarida mualliflik hissi, an'anaviy eposga ijodiy yondashuv tuyg'usi kuchaya boradi. Bu hol ularning o'zlari kuylayotgan dostonlarga bilib-bilmay o'zgartirishlar kiritilishiga olib keladi. Bu narsa fol'klordagi individual va jamoa ijod mutanosibligining buzilishiga sabab bo'ldi. Ko'pchilik baxshilarning mavjud dostonlar sujet motivlari asosida yangi-yangi kombinatsiyalarda «o'z» variantlarini «yasab», ijro qilishga urinishlar ham shunday holatlar bilan izohlanadi. Bunday «dostonlar» ayrim baxshilarning «yozuvchilik», «shoirlik»ka intilishi, ilgari epik an'anada bo'lmagan dostonlarni to'qishga urinish mahsulidir. Bunday og'zaki epik an'analardagi buzilishlarga birgina «Alpomish» dostonini parchalashga urinish holatlari yaqqol misol bo'la oladi. To'g'ri, xalqimiz har doim davomiylikni yaxshi ko'radi. Ezgulik, adolat, diyonat hamisha borligiga va galaba qozonishiga ishonadi. Shu bois ham befarzand Go'ro'g'li va uning farzandlari (Hasanxon, Avazxon), nevaralari (Ravshan, Nurali), evaralari (Jahongir, Sherali) kabi yengilmas, mard, bahodirlarning obrazlari yaratilgan silsila dostonlar ijro qilganlar. Ana shu tarzda «Go'ro'g'li» dostonlari bu kabi katta turkumlikka (hattoki, ba'zi dostonlarining o'zi alohida nasliy turkumlikni tashkil etadi) birlashganlar. Ammo bular asrlar davomida jonli epik an'analarda doirasida ijro etib kelingan. Baxshilar dostonlardagi sujet va kompozitsion qurilishiga, obrazlar yaxlitligiga, qadimiy motivlarning ishlanishiga, epik formulalarning qo'llanishiga har doim alohida e'tibor bilan yondashganlar. Bunda individual va jamoaviy ijod mutanosibligi to'la saqlangan. Shuning uchun

¹ Alpomish. Doston. Fozil shoir varianti. -T., 1999.

ham bunday dostonlar xalqimiz hayotida mangu yashab, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. Mazkur holatni «Alpomish» dostoni tarixida ham koʻrishimiz mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, «Alpomish» dostonining har ikkala qismi qachonlardir alohida-alohida yaratilgan boʻlishi mumkin. Ammo bundan ming yillar oldin ular yaxlit doston sifatida shakllangan va keyinroq yaratilgan «Yodgor» dostoni bilan birgalikda alohida turkumni tashkil etadi.¹ Folklorshunos olimlar M.Murodov va A.Ergashevlar esa dostonni alohida turkumlik doirasida tahlil etish kerakligini taʼkidlaydilar. «Alpomish», «Beva Barchin», «Yodgor», «Yoʻlchibek» dostonlari birgalikda «Alpomish» nasliy turkumini yuzaga keltiradi. Hali yozib olinmagan «Shomurod» dostoni ham borki, bu ham «Alpomish»ning katta bir turkum sifatida Janubiy Oʻzbekistonda keng tarqalganligini koʻrsatadi.² Mualliflarning bu mulohazalari har tomonlama oʻrganishni talab qiladi. Haqiqatdan ham, Janubiy Oʻzbekiston dostonchiligida 60-80-yillarda ushbu dostonlar ijroda ommalasha boshladi. Ammo bu kabi dostonlarning ayrimlari ilgarigi davrlarda baxshilarning anʼanaviy repertuarida boʻlmaganligi va ijro etib kelinmaganligini ham hisobga olish kerak boʻladi.

Keyingi yillarda "Alpomish" dostoni kattakon turkumni tashkil etgan boʻlib, 32 dostonidan iborat degan asossiz fikrlar paydo boʻldi. Hatto, badiiylikdan yiroq boʻlgan «Hursoʻna», «Yodgor» kabi Chorshanbi Rahmatullayevdan yozib olingan chala-chulpa variantlar ham toʻla oʻrganilmay, nashr etib yuborildi. Termiz davlat universitetining dotsentlari Roʻzi Mustafoulov va Bolta Yoriyevlar Chorshanbi baxshiga asoslanib, Alpomishning ota-bobolarini aniqlamoqchi boʻladilar va ularning har biri haqida doston boʻlgan, deb uylaydilar. Ularning taʼkidlashicha, Alpomish avlod-ajdoddarining bosh bobosi Shoh Shayx Mardon hisoblanadi. Undan keyingi 19 ota quyidagilar: Toʻgʻonbiy-Dobonbiy - Dobitbiy - Subhonbiy - Qoplonbiy - Qoʻnoqbiy – Kunabiy – Sarinbiy-Oʻrinbiy-Tolqonbiy -Arqonbiy-Qaysarbiy-Arslonbiy -Sultonbiy - Dulanbiy - Davxonbiy - Kunanbiy – Alpinbiy-Bobonbiy. Bobonbiydan Qultoy yuzaga keladi. Qultoyning oʻgʻli Jilovquldir. Alpinbiyning oʻgʻillari Boyboʻri bilan Boysaridir. Boyboʻri oʻgʻli Hakimbek, yaʼni Alpomish boʻlib, Alpomishning farzandlari Yodgor, Ollinbek, Hursoʻnadir. Yodgorning oʻgʻli Shoqaysar, qizi Oybaldoqdir. Boysarining qizi Barchinoy, oʻgli Qoʻngʻiryot boʻlib, Qoʻngʻiryotning oʻgli Shohsamar, qizlari Oyjigʻa, Guljigʻalardir. Jurnalist N.Tojimurodov olimlarimiz fikrini qoʻllab-quvvatlab, yuqoridagi shajarani takror qayd etgan holda Alpomishning tugilganiga 2866 yil boʻlganligini, Hakimbekning otasi 95 yoshga, oʻzi 115 yoshga kirganligini qoʻshimcha qiladi.³ Alpomish va uning ajdod-avlodlari haqida shuncha doston boʻlganligi, hatto uning 2866 yil avval yashab oʻtgan tarixiy shaxs ekanligi toʻgʻrisidagi mulohazalar asossiz bir dalil hisoblanadi. Ogʻzaki shajarani belgilashda oʻzbeklarga xos oddiygina anʼanaviylikning (yetti ota-bobosini

¹ Jirmunskiy V.M. Zarifov X.T. Uzbekskiy nrodniy geroicheskiy epos. –M.,1947. str.60-112.

² Murodov M. Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. –T.:Mehnat,1999. 129-bet

³ Mustafoulov R. Yoriyev B. "Alpomish" talqinlari. Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari uchun qoʻllanma. –Termiz. Termiz davlat universiteti oʻquv, ilmiy-metodik kengashi.2000. Yodgor. Doston. Aytuvchi Chorshanbi baxshi Rahmatullayev. Yozib olib nashrga tayyorlovchi N.Toʻrayev.-Termiz: Jayhun,2000.

bilishni) buzilishi, keltirilgan ismlarning ayrimlari xalhimiz orasida tarqalmaganligi ham buni tasdiqlaydi. Buning ustiga Chorshanbi baxshidan yozib olingan dostonlar («Alpomish», «Qo'ngirot», «Olponbiy», «Yodgor», «Hurso'na» va boshqalar) badiiy jihatdan mukammal emas. Ushbu dostonlardagi sujet va motivlar bir-birini takrorlash bilan birga hatto bir-birini inkor etadi. Xalq dostonlariga oid til va uslub buzilgan. Bularning bari mualliflar mulohazalarining ilmiy jihatdan asossiz ekanligini ko'rsatadi. Bular Chorshanbi baxshi tomonidan o'ylab topilgan va yozib oluvchilarning haqiqat sifatida qabul qilishi oqibatidir. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, «Alpomish» dostonining Surxondaryo va Qashqadaryo variantlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Umir shoir Safarov, Mamadrayim baxshi, Bo'riboy Ahmedov variantlarida doston qat'iy ikki qismga ajratilmaydi. Bu variantlarda dostonning birinchi qismi asar umumiy matnining atigi uchdan birini tashkil etadi. Bundan keyingi davrda, bu hududlarda dostonning, asosan, ikkinchi qismi mustaqil doston sifatida kuylanib kelingan, degan xulosaga kelish mumkin. Bunday xulosa dostonning yaxlitligini inkor etmaydi, balki turli davrlarda jonli epik an'analarda uning saqlanish darajasini belgilaydi. Og'zaki epik an'analarga yozma adabiyot va teatr san'atining ta'siri kuchaygan davrda, xususan, baxshilar o'zlarini «muallif», «shoir» sifatida his eta boshlaganlarida bunday jarayonlar tezlashdi. Shuning uchun ham o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab Qodir baxshi va uning shogirdlari harakati bilan "Beva Barchin" mustaqil dostoniga aylangan hamda boshqa baxshilar tomonidan o'zlashtirilgan. "Beva Barchin"da Alpomish dostonining ikkinchi qismi sujet yo'nalishi saqlangan holda yangi epizodlar ham qo'shilgan. Buni eposning og'zaki an'analari so'nish davridagi hodisalardan biri-baxshilar ijodkorligining namunasi sifatida tadqiq qilish mumkin. Bunda uning og'zaki epik an'analarga qanchalik mos amalga oshirilganligi muhim o'rin tutadi.

"Beva Barchin" dostoni janubiy voqea dostonchiligida XX asrning 60-80-yillarida mustaqil doston shaklida ijro etila boshlangan. Doston Qora va Chori Umirovlar, Qodir va Qahhor Rahimovlar repertuarida qayd etilgan. Qahhor Rahimov repertuaridagi varianti folklorshunos olimlar A. Qahhorov va A. Ergashevlar tomonidan yozib olingan.¹

Doston sujet yo'nalishini Alpomish va Barchinoyning sog'inchi, sadoqati, Barchinoy va uning tarafdorlari Boybo'rishoh, Kuntug'mishoy, Yodgor, Qaldirg'och, Qorajonlarning Ultontoz boshchiligidagi qora kuchlarga qarshi kurashi tashkil etadi. «Beva Barchin»dagi epik voqelik, asosan, Alpomish dostonining ikkinchi qismidagi sujet yo'nalishi asosida davom ettiriladi. Shunga qaramay, unda Alpomishning ikkinchi qismida bo'lmagan qator epizodlar ham mavjud. Bir qator epizodlar tasviri kengaytirilgan yoki yangicha talqin etilgan. Bunday jarayonlar dostonning mustaqilligini ta'minlashga harakat qilgan. Doston:

¹ Beva Barchin. Doston. Aytuvchi Qahhor Rahimov. Yozib oluvchilar A.Qahhorov. A.Ergashev. Qo'lyozma shaxsiy arxivimizda

*Beqadirlar o‘z elida darbadar,
O‘zga elda tatimaydi kumush-zar,
Barchin checham o‘g‘il ko‘rdi otajon,
Alpomishdan bizga qoldi yodigor, deb*

Qaldirg‘ochning Boybo‘rishohdan suyunchi so‘rashi, epik qahramon avlodi davomchisining dunyoga kelishi, unga Boybo‘ri tomonidan nom qo‘yilishi va beshik to‘yini nishonlash bilan boshlanadi. Bunday o‘rinlar «Alpomish» dostonining ikkinchi qismida faqat eslatib o‘tiladi, xolos. «Beva Barchin» dostonida esa, bu kabi epizodlar keng tarzda tasvirlanadi. Hatto Barchin tilidan Yodgorga alla aytish ham kiritilgan. Voqealar rivojida Alpomishni Qorajon izlab borib, o‘lgan ekan, deb bir qop suyakni olib kelishi, turli xil nayranglar bilan Ultontozning Barchinga, Qoralochinning Qaldirg‘ochga uylanish uchun olib borgan kurashlari, Ultontozning hukmronlikni qo‘lga kiritishi, Qorajonga ig‘vo uyushtirishi, Boybo‘ri biya boqar, Qaldirg‘och oyim va Yodgorni tuya boqar, Kuntug‘mish oyimni cho‘ri qilib azoblashi va Barchinning aql bilan ish yuritishi voqealari tasvirlanadi. Dostonda inson boshiga kulfat tushganda kimlar do‘stu, kimlar dushmanga aylanishi Ultontoz, Qoralochin, Omon obrazlari misolida yorqin o‘z ifodasini topgan. Dostonning nomlanishiga kelganda shuni alohida ta’kidlash kerakki, Surxondaryo va Qashqadaryoda ersiz qolgan ayolni yoxud xotindan ajratilgan erni beva deb atashadi. Beva-tojikcha, qo‘ng‘irotchasi - tul bo‘lib, ersiz qolgan yoki tul qolgan ayol ma’nosini anglatadi. Ayrim o‘rinlarda tul so‘zi (tul ayol) atalishi uchrab tursa-da, asosiy muomalada beva qo‘llaniladi. Barchinning beva deyilishiga sabab shuki, Qorajon Alpomishni chohdan ozod qila olmay qaytar ekan, qarindosh urug‘ini noumid qilmay degan maqsadda bir qop suyakni olib keladi, zor-zor yig‘lab Alpomish o‘lganini, suyagi qolganini aytadi. Suyaklarni Alpomish o‘ldi deb ko‘msalarda, ammo Boybo‘ri, Barchin, Kuntug‘mish oyimlar bunga ishonmaydilar. Ana shu vaziyatda dushmanlar kuchga kiradi. Bu voqea kim do‘stu, kim dushmanligini ajratishga, Barchinning vafodorligini, sadoqatini sinashga asos bo‘ladi. Alpomishning o‘lganligi xabaridan keyin Barchin beva qoladi. Beva ayolga uni rozi qilib uylanish mumkin. Shunday holat voila urf-odatlariga to‘g‘ri keladi. Bevaga aylangan Barchin epik voqelikning keyingi rivojlanishiga turtki beradi. Dostonning sujet yo‘nalishidagi voqealar ana shu asosda tasvirlanadi. «Beva Barchin» dostonida Qaldirg‘ochning Yodgor tug‘ilishi munosabati bilan Boybo‘ridan suyunchi so‘rashi, bunda ota bilan qiz o‘rgasidagi chiroyli savol-javoblar, beshik to‘yi va alla aytishlar, Qaldirg‘ochning Omon cho‘pondan non tilanishi va cho‘ponning ta’magir xulqi tasvirlari, galadan ayrilgan tuyaning och Yodgorni emizishi kabi qator epizodlar borki, ular «Alpomish» dostonining ikkinchi qismida uchramaydi. Bunday jarayonlar Qodir va Qahhor Rahimovlarning an’anaviy sujetga ijodiy munosabatda bo‘lganliklarini va shu sujetning umumiy yo‘nalishiga yangiliklar kirita olganliklarini ko‘rsatadi. Dostonda an’anaviy asosda to‘qilgan ajoyib misralar, badiiy go‘zal parchalar juda ko‘plab uchraydi. Kechasi Barchinning o‘toviga kirmoqchi bo‘lgan Ultontozga uning mardona javobi badiiy mukammal asosda shunday tasvirlanadi;

O‘ylaganda o‘ying yo‘q,

*Bo'ylagali bo'ying yo'q,
Nega kelding bostirib,
Elga berar choying yo'q.
Oy nechaga, nechaga,
Hayronman qulbachchaga,
Shunday hazil qilama,
Tunda kelib chechaga.
Chechangning bir zo'ri bor,
Eshoni bor, piri bor,
Qanday kelding kechasi,
Alpomishday eri bor...*

Shu bilan bir qatorda, dostonni badiiy mukammal epik tarzda deb, baho berib bo'lmaydi. Yaxlit olganda, unda kitobiylik ustunlik qiladi. Xalq dostonlariga xos til va uslub buzilgan. Masalan, doston shunday boshlanadi; «Alqissa, juda qadim zamonda, kun chiqadigan tomonda, ming xil tovlanadigan sayroqi qushlari, xushovoz bulbullari har yonda, odamning aksi ko'rinadigan zilol suvlari tumanda, olamga mashxur, har kecha-kunduzi ming doston bo'ladigan jannatmakon bir o'lka bor bo'lib, uni avliyolar va pirlar Boysun-Qo'ng'irotda deb nomlagan edilar». Doston boshlamasidagi ushbu tasvirlardan ko'rinadiki, baxshilar an'anaviy dostonlarni hech qachon bu tarzda boshlamaydilar. Bunday boshlama og'zaki ijro usulini yozma nutq asosida tasvirlanishi tomon harakat qilishga olib kelgan. Chunki og'zaki nutq bunday bo'lmaydi. Dostonning har bir sahifasidan bu xildagi unsurlarni topish mumkin. Misol uchun, chaqaloq Yodgorga nom qo'yishdagi yig'ilish shunday tasvirlanadi: «Barchinoyning koshonasi qarindosh-uruqqa to'ldi. Hamma Barchinoyning donoligini bildi, shu kecha o'yin-kulgini qildi... Ertasiga hamma qarindosh qutlug' qadamlar, ulug' duolar, shirin orzu-umiddar bilan Alpomishni eslab tarqaldilar». Dostondagi ushbu tasvir qandaydir tantanali marosimdagi nutqqa o'xshaydi. An'anaviy dostonlarda esa bunday til uslubi tasvirlanmaydi. Bu kabi dostonda «Alpomish»dagi ruh, g'oyaviy maqsad butunlay o'zgartirib yuborilgan. Har bir epizodda mantiqsizlik, biri ikkinchisini inkor etuvchi holatlarga duch kelinadi. Masalan, dostonda Ultontoz bir bechora oshiq sifatida tasvirlanadi: «Barchinoyni jondan ham yaxshi ko'rar, qo'lidan bir ushlashni kechalari tushida ham orzu qilar, lekin Alpomishdan o'lguday qo'rqr, uning kuchidan haymiqar, shuning uchun bu orzu-umidlari yuzaga chiqmay, ichida temir kabi chirib, qoniga qo'shib, havasi ikki ko'zida qolgan edi». Epik an'anaga ko'ra Ultontoz oshiq emas, balki da'vogar. U Boybo'rining o'gay o'g'li bo'lganligi uchun ham o'zini Boysun-Qo'ng'irotda Alpomishdan keyingi qonuniy egasi hisoblaydi. Shu sababli ham u Barchinga uylanmoqchi. Baxshi esa, buni butunlay boshqacha talqin qiladi va jonli epik an'anaga zid yo'l tutadi. Bu kabi hol an'anaviy dostonlarni kuylashda baxshilarning "ijodkorlik", "o'ziga

xoslik”ka intilishi natijasidir. Ammo bunday ijodkorlik va o‘ziga xosliklar dostonchilikning ko‘p asrlik jonli og‘zaki an‘analariga mos emas. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Shoberdi Boltayev, Shomurod Tog‘ayev, Qora va Chori Umirovlar, Xushvaqt Mardonaqulov, Qahhor Rahimov va boshqa iste’dodli baxshilarning dostonchilik an‘analariga amal qilishlari, hamda yoshlarni ushbu san‘at turiga qiziqтира olishlari natijasida baxshichilik jonli ijroda shu kunlarda ham davom etayotgan bo‘lsa-da, uning ijro yo‘nalishlarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Dostonlarning sahnaviy talqinlari yuzaga keldi. Bularning bari baxshichilik san‘atining og‘zaki ijro sharoitlarida ham asta-sekinlik bilan so‘nib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Endilikda xalq dos tonlari xalqimizning buyuk ma‘naviy boyligi folklor merosi sifatida o‘zining nashrlari hamda zamonaviy san‘atdagi yangicha talqinlari bilan avlodlarga xizmat qilishda davom etadi.

XULOSA

Respublikamizning bir qator hududlarida bo'lgani kabi Janubiy O'zbekiston vohasida ham baxshichilik san'ati qadimiy an'analar asosida rivojlanib keldi. O'ziga xos dostonchilik maktablari faoliyat ko'rsatib, baxshichilik san'atining gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Ammo ijtimoiy-madaniy jarayonlarda kechgan o'zgarishlar, yangiliklar baxshilarning qadimdan gavjum auditoriyasini susaytirdi. Shu asosda baxshi va uning jonli ijrosiga bo'lgan qiziqish kamaydi. Baxshichilik san'atidagi ustoz-shogirdlik an'anasi barham topib, doston kuylashning yangicha talqinlari yuzaga keldi. Bunday o'zgarishlar asriy an'analarda rivoj topgan baxshichilik san'atining so'nishi, zamonaviylashuviga olib keldi. Endilikda baxshi-shoirilar emas, otarchi-baxshilar guruhi yuzaga keldi, hamda doston kuylash an'analari o'zgarib, u sahnaga ko'chdi.

Janubiy O'zbekiston dostonchiligida yuzaga kelgan bunday o'zgarishlar doston va uning ijrochilari dunyoqarashiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pchilik baxshilar o'zlariga XX asr ijodkorlari sifatida baho bera boshladilarki, bunday holat jamoa va individual ijod mutanosibligida muayyan buzilishlarga olib keldi. Natijada baxshilarimiz o'zlarining "yozuvchilik", "shoirlik"ka xos qobiliyatlaridan foydalanib, yangi-yangi dostonlar shakllantira boshladilar. Ammo bunda sun'iylik, an'anadan uzoqlashish hollari paydo bo'ldi. Masalan, "Temurnoma" qissasi sujeti asosida "Sohibqironning tug'ilishi" (Ro'zi baxshi Qulto'rayev), "Amir Temurning tug'ilishi va yoshligi" (Chori baxshi Umirov) kabi doston "yasash" hollari, yaxlit "Alpomish" dostonini parchalashga urinish, an'anaviy dostonchilik yo'lida "Temur va Boyazid", "Ahmad Yassaviy", "Samarqand tarovati" va shu kabi dostonlar yaratildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra biz bu kabi dostonlarning yuzaga kelish omillarini quyidagi holatlar bilan belgiladik. Birinchidan, eposni o'zlashtirishda barqaror uzviylikning davom etmaganligi. Chunki ommaviy san'at turlari yoshlarni o'ziga jalb etib, baxshining badiha qilishiga imkon yaratmadi. Shu asosda ko'pchilik baxshilar individual ijod bilan shug'ullanib, repertuarda ana shunday yasama dostonlarni shakllantirdilar.

Ikkinchidan, baxshining xotirasida shakllangan epik bilim va dunyoqarash madaniy omillar bilan uyg'unlashdi. Endilikda baxshilar faqat ustozlaridan o'rgangan doston matnlari bilan emas, balki o'qib o'zlashtirib, yozma manbalar asosida "doston yaratish" usullariga o'tdilar. Bunday doston matnlari murakkablashib, ularda xalqona ruh buzildi.

Uchinchidan, epik san'atga o'rgatish usullari o'zgardi. Bir paytlar ustoz baxshilar shogird tayyolash an'anasiga alohida e'tibor qaratganlar. Hattoki, shogird baxshilar doston kuylash usul va yo'llarini o'rganish, o'zlashtirish, xullas usta baxshi sifatida shakllanish uchun ikki, uch yillar mobaynida ustozlar tarbiyasida bo'lgan. Ustozlar duosini olib, maxsus sinovdan o'tkazilgan. Bugungi kunda esa bir, ikki soz chertishni o'rganib, baxshichilikka da'vo qilish hollari uchramoqda. Bunday holatlar uzoq asrlar mobaynida estetik ahamiyat kasb etgan baxshichilik san'atining so'nishiga olib keldi. Tadqiqot davomida biz doston aytish yo'llari, doston matnlarini ustozlaridan og'zaki eshitib, og'zaki o'zlashtirgan Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir baxshi Safarov, Yusuf qori O'tagan o'g'li, Bo'ri baxshi Ahmedov, Rajab baxshi Normurod o'g'li, Tog'ay shoir Mahmanov kabi baxshilar ijodini, Qodir baxshi Rahimov, Qora va Chori Umirovlar, Shomurod Tog'ayev, Xushvaqt Mardonaqulov, Abdunazar Poyonov, Shoberdi Boltayev, Qahhor Rahimov kabi baxshilar repertuarini o'rganish, qiyoslash asosida tahlil qildik.

Xulosa qilib aytganda, baxshichilik san'ati o'tmish ajdodlarimiz tafakkur gulshani, ahloqiy-ma'naviy madaniyat chashmasi ekan, ularni bugungi folkloriy jarayonlar asosida tadqiq etmoq muhim vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'ldan og'ishmaylik. –T.:O'zbekiston,1993.

II

1. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari.-T.:Fan,1974.
2. Alimov S. Folklor janrlari munosabatida ijro va badiha.-T.,1992.
3. Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li, nashrga tayyorlovchilar: H.Zarifov, T.Mirzayev.-T.:Sharq,1999.
4. Alpomish. Doston. Aytuvchi Xushvaqt Mardonaqulov, nashrga tayyorlovchi T.Turdiyev.-T.:Yozuvchi,1998.
5. Alpomish. Doston. Aytuvchi Berdi baxshi, nashrga tayyorlovchi T.Mirzayev. – T.:Yozuvchi,1999.
6. Alpomish- O'zbek xalq qahramonlik eposi. –T.:Fan, 1999.
7. Aristotel. Poetika. –T.:Adabiyot va san'at,1980.
8. Afzalov M. O'zbek xalq shoirilari//Sharq yulduzi, 1946.
9. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. –T.: Adabiyot va san'at, 1955.
10. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – M.:Vissh.shk, 1989.
11. Gatsak V.M. Skazochnik i yego tekst // Problemi folklor. –M.:1991.
12. Dalgat U.B. literatura i folklor. –M.:Nauka,1981.
13. Yormatov I. O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati. –T.:Fan, 1994.
14. Jirmunskiy V.M. Zarifov H.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. –M.: Xudojestvennaya lit.,1947.
15. Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. –T.:Fan,2001.
16. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. -T.:Fan,2009.
17. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqeylik. –T : Fan, 1991.
18. Zarifov H.T. O'zbek folkloristikasi tarixidan // O'zbek folklori masalalari. –T.:Fan, 1970.
19. Zarifov H.T. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar//Po'ltkan shoir. Tadqiqotlar. –T.:Fan, 1976.
20. Imomov K. Dostonlarda ertak motivlari//Fozil shoir: O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3-kitob. –T.:Fan, 1973.
21. Islom shoir va uning xalq dostonchiligida tutgan o'rni//O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. –T.:Fan, 1978.
22. Kuntug'mish. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar H.Zarifov, T.Mirzayev.-T.:1975.
23. Lord. A.B. Skazitel.-M.:Vostoch.lit, 1994.
24. Mirzayev T. Alpomish dostonining o'zbek variantlari. –T.:Fan, 1968.
25. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. –T.:Fan, 1979.
26. Mirzayev T. Alpomish dostoni va uning Berdi baxshi nusxasi haqida//Alpomish. Doston. Berdi baxshi varianti. –T.: 1999.
27. Murodov M. Ergashev A. Alpomishnoma. Qashqadaryo talqini. – T.:Mehnat, 1999.
28. Murodov M. Ergashev A. Alpomishnoma. Qashqadaryo talqini. – T.:Mehnat, 2000.
29. Musaqlulov A. O'zbek xalq qo'shiqlarining tarixiy asoslari. T.:Fan, 1994.
30. Mustafaqlulov R. Yoriyev B. Alpomish talqinlari. –Termiz, 2000.
31. Novikov Yu.A. Skazitel i bilinnaya traditsiya. SPb, 2000.
32. Propp V.Y. Russkiy geroicheskiy epos. –M.: 1958.

33. Putilov B.N. Epicheskoye skazitelstvo.-M.:Vostochn.lit.,1997.
34. Rahmonov N. O'rxun-Yenisey yodnomalari va turkiy epos. Filolog.fan.dokt...dis.-T,1991.
35. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. -T.:Fan, 1969.
36. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. -T.:Cho'lpon, 1990.
37. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori.-T.:Fan, 1986.
38. Sohibqironning tug'ilishi. Doston. Aytuvchi Ro'zi baxshi Qulto'rayev. Nashrga tayyorlovchilar Qahhorov A. Ergashev A. -Qarshi, 1993.
39. Turdimov Sh. "Yunus pari" dostoni haqida//Til va adabiyot ta'limi, jurnal. 1999.
40. To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida barmoq sistemasi. -T.:Fan, 1966.
41. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. -T.:ФАН, 2007.
42. Ergash shoir va uning dostonchilikda tutgan o'rni // O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar.-T.:Fan, 1971.
43. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. -Qarshi: Nasaf, 1999.
44. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. -T.:Fan, 2006.
45. Qahhorov A. Yangi dostonlar.-T.:Fan,1985.
46. Qo'shmoqov M. Baxshilar xazinasi.-T.:,1981.
47. Ho'rso'na. Doston. Aytuvchi Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, yozib olib nashrga tayyorlovchi R.Mustafaqulov.-Termiz:Jayhun,1999.

ARXIV MATERIALLARI

1. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov, yozib oluvchi O.Sobirov. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti H.Zarifov nomidagi folklor arxivi materiallari.inv.№1254.
2. Alpomish. Doston. Aytuvchi Kodir baxshi Rahimov, yozib oluvchi Qahhorov A. Magnitofon yozuvi.
3. Alpomish. Doston. Aytuvchi Qora baxshi Umirov, yozib oluvchilar Murodov M, Ergashev A. Qo'lyozma. QarDU folklor laboratoriyasi arxivida.
4. Amir Temurning tug'ilishi va yoshligi. Doston. Aytuvchi Chori baxshi Umirov, yozib oluvchi Ergashev A. Qo'lyozma. QarDU folklor laboratoriyasi arxivida.
5. Beva barchin. Doston. Aytuvchi Qahhor baxshi Rahimov, yozib oluvchi Qahhorov A. Qo'lyozma. Shaxsiy arxivimizda.
6. Oysuluv. Doston. Aytuvchi Ro'zi baxshi Qulto'rayev, yozib oluvchilar Qahhorov A, Ergashev A. Qo'lyozma ZUFA inv.№1816.